


**Barno ABDURAHMONOVA**

# **Adabiyot o‘qitish metodikasi**

**Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari**

**Alisher Navoiy nomidagi  
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti  
Toshkent – 2012**



74.268.8 - Адабиёт ғуруми маркази

UDK: 821.512.133(072)

KBK: 83.3(50\*)

A15

Mas'ul muharrir: Boqijon To'xliyev, f.f.d.prof.

**Abdurahmonova, Barno.**

**Adabiyot o'qitish metodikasi** (amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari). / B.Abdurahmonova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – 60 b.

ISBN 978-9943-06-439-3

Qo'lingizdagi risolada adabiyot fanidan dars berishning eng ilg'or usullari, mashg'ulotlar texnologiyalari, ularning modellari, amaliy ish turlari, zamonaviy saboq usullari misollar bilan ko'rsatib berilgan. Muallimlar tomonidan badiiy asarni tushuntirish, talabalar tomonidan ularni tushunish prinsiplari haqida hikoya qilingan.


U nafaqat ona tili va adabiyoti o'qituvchilariga, balki adabiyot faniga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun birday asqotadi.

UDK: 821.512.133(072)

KBK: 83.3(50\*)

ISBN 978-9943-06-439-3

© Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
nashriyoti, 2012.



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|                |                                                        |
|----------------|--------------------------------------------------------|
| <b>1-Mavzu</b> | <b>Badiiy asarni obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish</b> |
|----------------|--------------------------------------------------------|

### 1.1. Amaliy mashg'ulot texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt - 2 soat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Talabalar soni: 25 nafar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| O'quv mashg'ulotining shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Amaliy mashg'ulot                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| Amaliy mashg'ulotning rejasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Obraz va uning turlari haqida ma'lumot.</li> <li>2. Obraz va timsol tushunchalarning o'zaro munosabati.</li> <li>3. Epizodik obraz va ularga tavsif.</li> <li>4. Farhod va Shirin dostonidagi obrazlar ustida ishlash.</li> </ol>                                                                                                                  |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: bo'lajak mutaxassislarning tushuncha va tasavvur asosida ularning tahlil qilish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Pedagogik vazifalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | <b>O'quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>– Adabiyot o'qitish orqali badiiy obrazning o'ziga xosligini ko'rsatish;</li> <li>– Badiiy obraz to'g'risidagi bilimlarni yanada boyitish;</li> <li>– Badiiy asarni o'rganish orqali obrazlar farqini ochib berish;</li> <li>– Adabiyot namunalarini o'qitish orqali badiiy obrazning oziga xosligini ko'rsatish;</li> </ul> | <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Adabiyot o'qitish orqali badiiy obrazning o'ziga xosligini anglab yetadi;</li> <li>– Badiiy obrazlarni bir-biridan farqlaydi;</li> <li>– Badiiy obrazning oziga xosligini tusnunib yetadi;</li> <li>– adabiyot o'qitish adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid fanlari bilan aloqadorligini tushinib yetadi.</li> </ul> |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Ma'ruza, klaster.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Proyektor, doska, tarqatma materiallar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Individual, frontal, juftlikda ishlash.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |

| Bosqichlar vaqti                                                    | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                           |
|---------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                     | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Talabalar                                                                                 |
| <b>1-bosqich. Kirish<br/>(5 daqiqa)</b>                             | <p>1.1. Mavzuning nomini ekranga chiqaradi va mazkur mavzuni yoritishdan kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan reja savollarini namoyishga uzatadi (1-ilova).</p>                                                                                                                                                                                   | Tinglaydilar                                                                              |
| <b>2-bosqich.<br/>Bilimlarni<br/>faollashtirish<br/>(15 daqiqa)</b> | <p>2.1 "Aqliy hujum" metodi orqali talabalarni faollashtiradi. Berilgan savolga o'ylab javob berishni taklif qiladi: badiiy obraz haqida fikr yuriting? Epizodik obraz haqidagi fikringizni ayting?</p> <p>Bir talabaga javoblarni doskada yozib borishni taklif qiladi. Buning uchun 10 daqiqacha vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil qilinadi.</p> | Juftliklarga bo'linadilar, o'ylaydilar, muhokama qiladilar va savollarga javob beradilar. |
| <b>3-bosqich. Asosiy<br/>(50 daqiqa)</b>                            | <p>3.1. Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni e'lon qiladi (2-ilova);</p> <p>3.2. Topshiriqlar ekran orqali ko'rsatiladi (3-ilova);</p> <p>3.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida o'rganilgan mavzuga aloqador savollarni slayd orqali aks ettiradi (4-ilova).</p>                                                                                                                       | Ko'chirib oladilar.                                                                       |
| <b>4-bosqich.<br/>Yakuniy<br/>(10 daqiqa)</b>                       | <p>4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <p>Eshitadilar.</p> <p>Topshiriqlarni</p>                                                 |

|  |                                                                           |                 |
|--|---------------------------------------------------------------------------|-----------------|
|  | 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun vazifalar beradi. | yozib oladilar. |
|--|---------------------------------------------------------------------------|-----------------|

### **1-topshiriq:**

Quyidagi topshiriqni bajaring:

“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” kitobidan obraz haqidagi nazariy ma‘lumotni diqqat bilan o‘qib chiqing va obraz to‘g‘risida bilib olgan ma‘lumotlaringizni og‘zaki bayon eting. Mazkur fikrlarning darsliklarda qay tarzda ifodalanganini kuzating.

### **2-topshiriq:**

A. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Ra‘no obrazi portretini chiroyli tasvir etadi. Ana shu tasvirga tayanib, Ra‘noning suratini chizishga harakat qilib ko‘ring. So‘z tasviri bilan qalam tasvirining imkoniyatlarini ayting.

### **3-topshiriq:**

Abdulla Qodiriy Solih Mahdum, Xudoyorxon obrazlarini yaratishda ularning nutqiga alohida e‘tibor qaratgan. Nima uchun shunday qilgan? O‘ylab ko‘ring. Asar qahramonlari nutqidagi o‘ziga xos so‘zlarni ajratib oling va jadval tuzib joylashtiring.

### **4-topshiriq:**

9-sinf “Adabiyot” (umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf uchun darslik–majmua. T.: – Yangiyo‘lpoligraph service, 2006) dan Zebining sud qilish jarayoni tasvir etilgan lavhani o‘qing. Dialog va monologlardan yozuvchi nima maqsadda foydalanganligini ayting.

### **5-topshiriq:**

Cholponning “Kecha va kunduz”romani obrazlar tizimiga tayangan holda test topshiriqlari tayyorlashga harakat qilib ko‘ring. Tuzgan testlaringizni boshqa tuzilgan testlar bilan taqqoslab ko‘ring. O‘zingiz yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni topishga urining.

### **6-topshiriq:**

“Kecha va kunduz” asaridagi epizodik obrazlarni ajratib yozing. Ularning axloqiy-ma‘naviy qiyofasini o‘z so‘zingiz bilan izoblashga harakat qiling.

### **7-topshiriq:**

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav bilan Farhod o‘rtasidagi dialogga e‘tibor qarating:

Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah?  
Dedi: majnun vatandin qayda ogah?

Dedi: nedur sanga olamda pesha?  
Dedi: ishq ichra majnunluq hamisha.

Dedi: bu ishdin o'lmas kasb ro'zi,  
Dedi: kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Dedikim: ishq o'tidin de fasona!  
Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim: kuymagingni ayla ma'lum!  
Dedi: andin erur joh ahli mahrum!

Dedi: qay chog'din o'ldung ishq aro mast?  
Dedi: ruh ermas erdi tang'a payvast.

Dedi: bu ishdin inkor qilg'il!  
Dedi: bu so'zdin istig'for qilg'il!

Dedi: oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?  
Dedi: furqat kuni ishq balosho'r.

Dedi: ishq ahlining nedur hayoti?  
Dedi: vasl ichra jonon iltifoti.

Dedikim: dilbaringning de sifotin!  
Dedi: til g'ayratidin tutmon otin!

Dedikim: ishqig'a ko'nglung o'rundur,  
Dedi: ko'nglumda jondek yoshurundur.

Dedi: vaslig'a borsen orzumand?  
Dedi: bormen xayoli birla xursand.

Dedi: no'shilabidin topqay el bahr?  
Dedi: ul no'shdin el qismidur zahr.

Dedi: joningni olsa la'li yodi?  
Dedikim: ushbudur jonim inurodi.

Dedi: ko'ksungni gar chok etsa bebok?  
Dedi: ko'nglum tutay ham ayla deb chok!

Dedi: ko'nglung fido qilsa jafosi?  
Dedi: jonimni ham aylay fidosi.

Dedikim: ishqdin yo'q juz ziyon bud,  
Dedi: bu keldi savdo ahlig'a sud.

Dedi: bu ishq tarki yaxshiroqdur!  
Dedi: bu sheva oshiqdin yiroqdur!

Dedi: olganju qo'y mehrin nihoniy,  
Dedi: tufroqqa bermon kim yoni!

Dedi: joning'a hijron kinakashdur,  
Dedi: chun bor vasl ummidi xushdur.

Dedikim: shahg'a bo'lma shirkat andesh!  
Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!

Dedi: joningg'a bu ishdin alam bor.  
Dedi: ishq ichra jondin kimga g'am bor?

Dedi: kishvar beray, kech bu havasdin!  
Dedi: bechora, kech bu multamasdin!

Dedi: ishq ichra qatling hukm etgum!  
Dedi: ishqida maqsudumg'a yetgum.

Dedi: bu ishda yo'q sendin yiroq qatl,  
Dedi: bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.

Farhod va Xusrav obrazining qiyosiy tavsifi uchun reja tuzing.  
O'z fikringizni reja asosida bayon eting.

## 8-topshiriq

“Farhod va Shirin” dostonidan keltirilgan parchani o‘qing. Shirin obrazining axloqiy-ma’naviy qiyofasiga diqqat qiling. Bu holat Sharq qizlaridagi jasoratni yoki...? O‘ylab ko‘ring.

Dedi: la’lig’a olib la’li ahmar<sup>1</sup>  
Sening ishqingda no’sh ettuk bu sog’ar!

Sumurdi uyla shamshodi qasab po’sh  
Ki, mundin oldi oning ichkani hush.

Ichib jomi labo-lab tutti ul dam  
Ki, no’sh etkil mening ishqimda sen ham.

Iki hol ul may ichra hosil erdi  
Ki, ham hayvon suyi, ham qotil erdi.

Chu oshiq may isidin bor edi mast,  
Ajab soqiyg’a, ko‘rkim, bo’ldi hamdast.

Olib sipqordi andoq bexudona  
Ki, sog’ar naqshidin ketti nishona.

Bu sag’ar bo’lsa erdi jomi aflok,  
Qo’yub og’ zig’a sipqorg’ay edi pok.

Vujudi naqshi ko’nglidin yo’yildi,  
Ko’ngil nangi vujudidin qutuldi.

Qilib o’zni xalos o’zluk g’amidin,  
Ne o’zluk, balki yo’qluq olamidin.

Ayog’ni topshurub fardi zamona,  
O’zin tufroqqa soldi bexudona.

---

La’lig’a olib la’li ahmar — bu misradagi birinchi “la’l” —lab, ikkinchisi —qizil may ma’nosida ishlatilgan.

Boshi chun ul sanamni sajda etdi,  
Bu olamdin yana olamg'a ketti.

Ko'tarmak istadi boshin parizod,  
Yiqildi jismi, ketmish erdi Farhod.

### **9-topshiriq**

“Farhod – komil inson” mavzusida reja tuzish orqali Farhod obraziga tavsif yozing.

### **10-topshiriq**

Quyidagi vazifalarni bajaring.

1. “O'tkan kunlar” romanining obrazlar tizimi mavzusi uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

2. “Kecha va kunduz” romanidagi qahramonlardan birining tavsifiga oid dars rejasini ishlab chiqing.

3. “Farhod va Shirin” dostonidagi ayollar obrazi” mavzusi uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash kerak. O'z takliflaringizni ayting. Ularning ayrim namunalarini tayyorlang.

4. Farhod obrazi tasvirida muallif mahoratini ko'rsatish uchun qanday metodik tadbirlar talab etiladi. Ularning shakli va ketma-ketligini ko'rsating.

5. Dostondan “Farhod va Xusravning qiyosiy tasviri” mavzusini yoritishda qo'l keladigan fakt va materiallarni to'plang. Ularga metodik izohlar yozing.

## 2.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt: 80 daqiqa                                                                                                                                                                                         | Talabalar soni: 25-30 nafar.                                                                                                                                                                                       |
| O'quv mashg'ulotining shakli                                                                                                                                                                            | Amaliy                                                                                                                                                                                                             |
| Mashg'ulotning rejas                                                                                                                                                                                    | 1. Matnni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish.<br>2. Matn mazmunini o'zlashtirishda lug'at bilan ishlash.<br>3. Matn mazmunini tabdil qilish.                                                        |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Matn ustida ishlash yo'llari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish. Matn ustida ishlashning o'ziga xos xususiyatini anglashga o'rgatish. |                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b>                                                                                                                                                                             | <b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>                                                                                                                                                                             |
| – matnni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;<br>– matn mazmunini o'zlashtirishda lug'at bilan ishlash;<br>– matn mazmunini nasriy bayon qilish.                                          | – matnni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni bartaraf etishni o'rganadilar;<br>– matn mazmunini o'zlashtirishda lug'at bilan ishlash malakasini egallaydilar;<br>– matn mazmunini nasriy bayon qilishga o'rganadilar. |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                | Subbat, aqliy hujum                                                                                                                                                                                                |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                              | Maktab, akademik litsey darstliklari                                                                                                                                                                               |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                  | Individual, jamoa shaklida ishlash                                                                                                                                                                                 |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                             | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                               |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                           | Blits-so'rov metodi                                                                                                                                                                                                |

## 2.2 Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Bosqichlar vaqti                   | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                       |
|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                    | O'qituvchi                                                                                                                                                                                               | Talaba                                                                                                                                |
| <b>Kirish (10 daqiqa)</b>          | 1.1. Mavzuni e'lon qiladi.<br>1.2. Ta'limiy maqsadni aytadi.                                                                                                                                             | E'tibor beradilar.                                                                                                                    |
| <b>Asosiy bosqich. (55 daqiqa)</b> | 2.1. Reja ekranga chiqariladi (1-ilova).<br>2.2. Mavzu bo'yicha talabalarga ko'rsatma beradi.<br>2.3. Talabalar guruhlariga bo'linadi.<br>2.4. O'quv topshiriqlari beriladi.<br>2.5. Taqdimot o'tkazadi. | Savollarga javob beradilar.<br>Guruhlariga bo'linadi.<br>Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar.<br>Javob beradi.<br>Tinglaydi. |

|                                  |                                                                         |                                                   |
|----------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| 3-hosqich.<br>Yakuniy<br>(daqqa) | 3.1. Xulosa yasaydi.<br>3.2. Uyg'a topshiriq beradi.<br>3.3. Baholaydi. | Eshitadilar.<br>Topshiriqlarni yozib<br>oladilar. |
|----------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|

## 1-ilova

### Reja:

1. Matnni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni bartaraf etish.
2. Matn mazmunini o'zlashtirishda lug'at bilan ishlash.
3. Matn mazmunini tabdil qilish.

Mumtoz matnlarni o'zlashtirish borasida talabalar qiyinchiliklarga duch keladi. Bularning sabablari quyidagilarda ko'rinadi:

1. Badiiy asar matnining bizning davrimizdan ancha oldin yozilganligi.

2. Badiiy asar matnini ayrim o'zgarishlarga uchraganligi.

3. Matnda talabaga notanish so'zlarning mavjudligi.

O'qituvchi bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarga quyidagi topshiriqlarni berishi maqsadga muvofiq.

### 1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing (Andijon tasviri).

Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki(si) shimol jonubida. Janubiy tarafidag'i qasabalar(dan) biri Andijondirkim, vasatta voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidir. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe' bo'lubtur. To'qqiz tarmov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdan ham chiqmas. Qal'aning girdogirdi tosh va sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur. Bu mahalla bila qal'ag'a fosila ushbu xandaq yoqosidag'i shohrohtur. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Aning uchunkim, amir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur.

**2-topshiriq. Talabalarga matndagi qiyin soʻzlar lugʻatini tuzish topshirigʻi beriladi.**

**Matndagi qiyin soʻzlar lugʻatini tuzing**

|                   |                                 |
|-------------------|---------------------------------|
| ● pora            | qism, boʻlak                    |
| ● qasaba          | shaharcha                       |
| ● Sayxun suyi     | Sirdaryo                        |
| ● vasat           | oʻrta                           |
| ● voqeʻ boʻlubtur | paydo boʻlmoq, joylashmoq       |
| ● oshligʻi vofir  | gʻallasi koʻp                   |
| ● rasm            | odat                            |
| ● noshpoti        | nok turi                        |
| ● ark             | qoʻrgʻon markazi                |
| ● tamov           | ariq                            |
| ● girdogirdi      | aylanasi                        |
| ● sangrezalik     | shagʻalli                       |
| ● shohroh         | katta yoʻl                      |
| ● mahallot        | mahallalar                      |
| ● fosila          | ajratuvchi                      |
| ● xandaq          | qalʼa devori oldidagi chuqurlik |
| ● dogʻi           | yana                            |
| ● uskuna          | goʻsht                          |
| ● shahr           | shahar                          |
| ● lafz            | soʻz                            |
| ● musannafot      | asarlari                        |
| ● bovujud         | qaysikim                        |
| ● Hiri            | Hirof                           |
| ● nashʼu namo     | shuhrat                         |

**3-topshiriq.** Matn mazmunini hozirgi oʻzbek tiliga oʻgirish talab etiladi.

Talabalar topshiriqni quyidagicha bajarishi mumkin.

Yettita shaharchasi bor boʻlib, beshtasi Sirdaryoning janub tarafida, ikkitasi shimol tarafida. Janubiy shaharlari orasidagi shahar Andijon boʻlib, Fargʻona viloyatining poytaxtidir. Doni va mevasi koʻp, qovun va uzumi yaxshi boʻladi. Qovun pishgan vaqtda poliz boshida qovun sotish odat emas. Andijon nokidan yaxshi nok yoʻq. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qoʻrgʻonidan soʻng eng katta qoʻrgʻondir. Uchta darvozasi bor. Markaziy qoʻrgʻonning janub tarafidadir. Shaharga toʻqqiz ariqdan suv kiradi. Ajablanarlisi shundaki, bu suv hech yerdan

chiqmas. Qal'aning aylanasi tosh yoki shag'alli katta yo'l bo'lib, uning atrofida mahallalar bor. Qal'a bilan mahallani ajratuvchi bu xandaq yonidagi katta yo'ldir. Yana ovlanuvchi qushlari ko'p, qirg'ovuli semizdir. Shunday rivoyat borki, bir qirg'ovul go'shtini to'rt kishi yeb tugata olmaydi. Eli turk. Shahar va bozorida turkiy tilini bilmaydigan kishi yo'q. Elining tili adabiy tilga mos. Shuning uchun Alisher Navoiyning asarlari shu til bilan shuhrat topgan.

#### 4-topshiriq.

**E.R. Laskerova hamda A.S.Shatilovlarga tegishli matn mazmunini o'zlashtirishning quyidagi sxemasini ko'rsatishgan<sup>1</sup>**

| Harakatlarni shakllantirish bosqichlari                                                                                                                | Amaliy ishlarning turlari                                                                                      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-daraja<br>Mo'ljallarning dastlabki aniqlanishi                                                                                                       | Matn mazmunini to'g'ri anglashga imkon beradigan asosiy nazariy tushunchalarning izohlanishi                   |
| 2-daraja<br>Mo'ljallar asosida tizimlar harakatlarining o'zlashtirilishi                                                                               | Olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, mashqlarni bajarish                                                |
| 1-bosqich<br>Matnning umumiy mazmunini tushunishga yo'naltirilgan harakatlarni shakllantirish, matnni yuzaki tushunish                                 | Matnni kompozitsion – tarkibli tahlili bilan bog'liq bo'lgan mashq va topshiriqlarni bajarish                  |
| 2-bosqich<br>Matndagi so'z, shuningdek, tarkibiy tuzilish, gap qurilishi asosidagi axborotlarni tushunishga yo'naltirilgan harakatlarni shakllantirish | Grammatik hamda leksik mashqlarni bajarish                                                                     |
| 3-bosqich<br>Matnning alohida-alohida qismlarini anglashga yo'naltirilgan harakatlarni shakllantirish, matnni teran tushunish                          | Matn ichidagi tarkibiy mazmuni aloqalari mohiyatini anglashga imkon beradigan mashq va topshiriqlarni bajarish |

Mazkur jadval asosida birorta she'riy asarning o'rganilish bosqichlarini ko'rsatib bering.

<sup>1</sup> Qaralg: Основы научной речи. Пед редакцией В.В.Химика, Л.Б.Волковой. – М.: СПб, АКАДЕМІА, 2003. – С. 123.

**5-topshiriq.** Yuqorida keltirilgan matndagi shaxs nomlari va joy nomlari jadvalini tuzing. Ularga izoh bering.

**6-topshiriq** sifatida talabalarga “Boburnoma” matnining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash beriladi. Talabalar matnga tayangan holda, quyidagi badiiy sanʼatlarga misollar topadilar. Namuna:

**Tansiqlik us-sifot:** Oshligʻi vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi boʻlur.

**Tanosub:** qoʻrgʻon, qalʼa, xandaq.

**Mubolagʻa:** “bir qirgʻovulni uskunasini toʻrt kishi yeb tugata olmaydur”

**7-topshiriq:** Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida tasvir etilgan Andijon tasvirini qayta yodga oling va “Boburnoma”da keltirilgan Andijon tasviri bilan qiyoslang. Topshiriqning yozma ravishda bajarilishi talab etiladi.

#### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
2. Sultonmurod Olim va boshqalar. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinf uchun adabiyot darslik majmua. Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2010.
3. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 2010.
4. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Umumiy oʻrta taʼlim maktabarining 9-sinf uchun adabiyot darsligi. – Toshkent, 2010.
5. 9-sinf uchun adabiyot fanidan oʻquv dasturi. Til va adabiyot taʼlimi jurnali/ 2009. № 9
6. Ibrohim Haqqul. Parini boʻlsa uchib qolsam. Bir gʻazal sharhi.– // Til va adabiyot taʼlimi jurnali/ 2009. № 9

## 3.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt: 80 daqiqa                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Talabalar soni: 25-30 nafar.                                                                                                                                                       |
| O'quv mashg'ulotining shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Amaliy                                                                                                                                                                             |
| Mashg'ulotning rejası                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Tahlilda asarning janriy xususiyatlarini hisobga olish.<br>Epik asarning o'ziga xos xususiyati.<br>Epik asarni tahlil qilish usullari.<br>Asardagi obrazlar tuzilishini o'rganish. |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra farqlash orqali badiiy asarning takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatlarini rivojlantirish. Epik turning o'ziga xos xususiyatini anglashga o'rgatish.                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                    |
| <b>Pedagogik vazifalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | <b>O'quv faolligining natijalari</b>                                                                                                                                               |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>Adabiy asar tahlilida tur va janrlarni farqlashning zarur ekanligini tushuntiradi;</li> <li>Epik asarni tahlil qilishda uning janrini e'tiborga olish muhimligini izohlaydi;</li> <li>Epik asar tahlilida talaba yosh xususiyatlariga e'tibor qaratishni aytadi;</li> <li>Obrazlar tizimini o'rganishni misollar orqali tushuntiradi.</li> </ul> | <b>Natijalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Farqlashga o'rganadilar;</li> <li>anglaydilar;</li> <li>bilib oladilar;</li> <li>malaka hosil qiladilar.</li> </ul>       |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Subhat, izlanish.                                                                                                                                                                  |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Umunta'lim maktab darsliklari                                                                                                                                                      |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Individual ishlash                                                                                                                                                                 |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                               |

## 3.2 Mashg'ulotning texnologik xaritasi


| Bosqichlar vaqti                  | Faoliyat mazmuni                                                                                         |                                                                         |
|-----------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                                   | O'qituvchi                                                                                               | Talaba                                                                  |
| <b>Ku ish (15 daqiqa)</b>         | Mavzuni e'lon qiladi.<br>Ta'limiy maqsadni aytadi.<br>O'quv topshiriqlari yozilgan varaqlarni tarqatadi. | E'tibor beradilar, tanishadilar.                                        |
|                                   | 1.1. Reja ekranga chiqariladi (1-ilova).<br>Mavzu bo'yicha talabalarga savollar beradi (2-ilova).        | Savollarga javob beradilar.                                             |
| <b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b> | Talabalar guruhlariga bo'linadi.<br>O'quv topshiriqlari beriladi.                                        | Guruhlariga bo'linadi.<br>Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar. |

|                                        |                                   |                                                   |
|----------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------------------|
|                                        | Taqdimot o'tkazadi.<br>Baholaydi. | Javob beradi.<br>Tinglaydi.                       |
| <b>Yakuniy bosqich<br/>(10 daqiqa)</b> | 4.1. Xulosa yasaydi.              | Eshitadilar.<br>Topshiriqlarni yozib<br>oladilar. |

## 1-ilova

### Reja:

1. Tahlilda asarning janriy xususiyatlarini hisobga olish.
2. Epik asarning o'ziga xos xususiyati.
3. Epik asarni tahlil qilish usullari.
4. Asardagi obrazlar tuzilishini o'rganish.



### Talabaga beriladigan topshiriqlar:

1. Epik asarni lirik va dramatik asardan farqi haqida o'ylang.
2. Hikoya, qissa, romanga berilgan ta'riflarni "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" kitobidan toping va o'qib chiqing.
3. A.Qahhoming "Bemor" hikoyasini o'qing va qismlarga ajrating.

Hikoyani o'rganishda to'liq, ya'ni mufassal tarzda ifodali o'qish usulidan foydalaniladi. Hikoya hajmi u qadar katta bo'lmaganligi uchun talabalarga hikoya o'qitiladi.

**II. Talabalarga "Bemor" hikoyasidagi maqol va iboralarni daftarlariga yozish topshiriq sifatida beriladi.**

"Bemor" hikoyasidagi maqol va iboralarni yozadilar.

Namuna:

1. *Bunday paytda yo 'g'on cho 'ziladi, ingichka uziladi.*

2. *Osmon – yiroq, yer – qattiq.*

2. *U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi.*

So'ngra talabalarga bu jummalarni tahlil qilish vazifasi topshiriladi. Maqol va keltirilgan iborani o'z so'zlari bilan izohlaydilar.

**III. Matn mazmunini qayta hikoyalash topshiriq sifatida beriladi.**

1. Ayrim talabalarning matn mazmuni haqidagi fikrlari tinglanadi.

2. O'qituvchi talabalar bilan savol-javob o'tkazadi.

a) *Asar voqealari kim tomonidan hikoya qilinmoqda?*

b) *Sotiboldi nutqi orqali uni qanday shaxs ekanligini bilish mumkin bo'lgan o'rinlarni ayting?*

d) *Abdug'aniboy obraziga munosabatingiz?*

c) *Tashqarida gadoylar ovozi eshutilishining asarga qanday aloqasi bor?*

g) *Nega asar aynan to'rt yashar qizaloqning so'zlari bilan tugagan? Bu bilan yozuvchi nima demoqchi?*

**3. "Diqqat! Muammo!"**


Bu bosqichda talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. *"Nega asar "Bemor" deb nomlangan? Yozuvchi nima uchun hikoyani "Kasal" yoki boshqa nom bilan atamadi?*

2. *Bemor dardining davosi nimada deb o'ylaysiz? Sabrmi? Pulmi?*

Talabalar bu savolga turlicha javob berishi mumkin, ammo har bir javob izohlanishi kerak.

**IV. Talabalarga "Bemor" hikoyasi timsollarini tavsiflang topshirig'i beriladi. Bunda talabalar hikoya qahramonlariga xos xususiyatlarni yoritadilar.**



| Hikoyaning nomi | Asar qahramonlari | Ularga xos fazilatlar                    | Orzu-istaklari, niyatlari          | Maqsadiga g'ov bo'luvchi omillar |
|-----------------|-------------------|------------------------------------------|------------------------------------|----------------------------------|
| "Bemor"         | Sotiboldi         | Bosiq, vazmin                            | Yaxshi yashash                     | Qo'li kaltalik                   |
|                 | Abdug'aniboy      | O'z manfaatini o'ylaydigan, hudbin kishi | Boylik                             | Sotiboldining puli yo'qligi      |
|                 | Tahib ayol        | Yaxshilik qiluvchi                       | Bemorning shifo topishini istaydi  | O'qimaganligi                    |
|                 | Qizcha            | Qalbi pok go'dak                         | Onaning sog'ayishini istaydi       | Uyqu                             |
|                 | Bemor ayol        | Mehribon, mushfiq ona                    | Qizchasining orom olishini istaydi | Kasallik                         |

Topshiriq shartiga ko'ra talabalar jadval bilan tanishadilar so'ngra, ularga kataklarni to'ldirish vazifasi topshiriladi. Jadvallar to'ldirib bo'lingach, juftlikda ishlash (juftlikda ishlash deganda talabalarning o'z partadoshi bilan ishlashi nazarda tutiladi. Agar o'qituvchi partadoshlarining birga ishlashlarini lozim topmasa u holda, oldindan juftlik hosil qilish yo'llarini o'ylab ko'rishi kerak). Jadvalni to'ldirish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, talabalarning topshiriqni bajarganliklari tekshiriladi va o'rtoqlari tomonidan baholanadi.

V. Qahramonlar nutqidagi nafaol so'zlarni aniqlang. O'zbek tilining izohli lug'atidan aniqlagan so'zlaringiz ma'nosini toping va ular haqidagi nazariy ma'lumot tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganilishini eslang.

VI. Uyg'a vazifa sifatida "Bemor" hikoyasi asosida "Bu muqaddas Vatanga azizdir inson" mavzusida insho yozish topshiriladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlarining pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T. A. Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.

2. Salayev F. Qurboniyozov. "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi". "Yangi asr avlodi". 2010.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf uchun adabiyotdan o'quv dasturi. "Ma'rifat" 2007 y.

4. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Qosimov B., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot darsligi. 6-sinf. – Toshkent. 2009.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.
6. “Til va adabiyoti taʼlimi” jurnali. 2010. № 3

## **2-ilova**

### **Savollar**

1. Hikoya janrining qanday oʻziga xos xususiyatlari mavjud.
2. A.Qahhor hikoyalarining oʻziga xosligi nimalarda koʻrinadi?
3. Hikoyaning ertak yoki qissadan farqini tushuntira olasizmi?
4. A.Qahhor hikoyalaridagi qahramonlarning oʻziga xos xususiyatlari nimalarda koʻrinadi?
5. Adib asarlaridagi maqollar, epigraflarning poetik vazifasini izohlab bering.
6. Hikoyalarning tiliga oid kuzatishlaringiz bilan oʻrtoqlashing.

|                 |                                                                      |
|-----------------|----------------------------------------------------------------------|
| <b>4 -Mavzu</b> | <b>Adabiyot darslarida dramatik asarlarni tahlil qilish usullari</b> |
|-----------------|----------------------------------------------------------------------|

#### 4.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Vaqt: 80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                                       | <b>Talabalar soni: 25-30 nafar.</b>                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                          | <b>Amaliy</b>                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Mashg'ulotning rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                 | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dramatik asarlarni tahlil qilish usullari.</li> <li>2. Asar (Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasi)dagi obrazlar tizimini o'rganish.</li> <li>3. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash.</li> </ol> |
| <b>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</b> Adabiyot darslarida dramatik asarlarni tahlil qilish usullarini, iirochilik mahoratini egallashga o'rgatish.                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Pedagogik vazivalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                   | <b>O'quv faoliyatidag natijalari</b>                                                                                                                                                                                                                             |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- Dramatik asarlarni tahlil qilish usullarini tushuntirish;</li> <li>- Asar (Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasi)dagi obrazlar tizimini o'rgatish;</li> <li>- Asarning g'oyaviy badiiy xususiyatlarini aniqlash.</li> </ul> | <p><b>Natijalar:</b></p> <p>Dramatik asar tahliliga oid asosiy tushunchalarni bilib oladilar, tahlilning turli usul va shakllari bilan tanishadilar.</p>                                                                                                         |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                     | Subbat, muammoli ta'lim                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                   | Umumta'lim adabiyot darsliklari                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                       | Individual ishlash, jamoa bilan ishlash                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                  | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                                                                             |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                                | Reyting nizomi asosida                                                                                                                                                                                                                                           |

#### Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| <b>Bosqichlar vaqti</b>   | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                                            |                                                     |
|---------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
|                           | <b>O'qituvchi</b>                                                                                  | <b>Talaba</b>                                       |
| <b>Tayyovlov bosqichi</b> | Mavzuni e'lon qiladi. Ta'limiy maqsadni aytadi. O'quv topshiriqlari yozilgan varaqlarni tarqatadi. | Mavzu mohiyatini anglaydi, topshiriqlarni bajaradi. |
| <b>Kirish</b>             | 1.1. Reja ekranga chiqariladi (1-ilova). Mavzu bo'yicha talabalarga ko'rsatma beradi.              | Savollarga javob beradilar.                         |

|                                        |                                                                                                        |                                                                                                        |
|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Asosiy bosqich.</b>                 | Talabalar guruhlariga bo'linadi.<br>O'quv topshiriqlari beriladi.<br>Taqdimot o'tkazadi.<br>Baholaydi. | Guruhlariga bo'linadi.<br>Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar.<br>Javob beradi.<br>Tinglaydi. |
| <b>4-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa.)</b> | 4.1. Xulosa yasaydi.                                                                                   | Eshitadilar.<br>Topshiriqlarni yozib oladilar.                                                         |

## 1-ilova

### Reja:

1. Dramatik asarlarni tahlil qilish usullari.
2. Asar (Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasi)dagi obrazlar tuzilishini o'rganish.
3. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf adabiyot dasturi. "Ma'rifat" gaz. 2007.
2. Sultonmurod Olim va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinfi uchun darslik majmua. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent. 2010.
3. Jalilov B, Sharipova M. Maktabga dramatik asarlarni o'rganish. "O'qituvchi" nashriyoti. – T., 1992.
4. Mirqosimova M. O'rta maktabda dramatik asarni o'rganish. T-1993.
5. Atamurodova Rohila. Adabiy ta'lim jarayonida Abdulla Oripov ijodini o'rgatish usullari. Ped. fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. 2011.
6. Rustamova I. Dramada remarkaning badiiy-estetik vazifasi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2003. № 3

**Topshiriq № 1.** Til va adabiyot ta'limi jurnalidagi umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf adabiyot dasturidan M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasi o'rganish bo'yicha berilgan tavsiyani o'qib chiqing.

**Topshiriq № 2.** Darslikdan o'qish uchun kerakli matnni ajrating hamda matnni rollarga bo'lib o'qishga kirishing.

**Topshiriq № 3.** Matn ustida ishlash jarayonida asardagi tushunarsiz so'zlar lug'ati tuzish va daftarlarga yozish vazifasi beriladi.

*Samovot – samolar, osmonlar.*

*Xud – xuddi, naq.*

*Rabdi hadal – qarshi zarba.*

**Topshiriq № 4.** Dramadagi tarixiy va to'qima obrazlarni aniqlang.

|                 |               |
|-----------------|---------------|
| Tarixiy obraz   | To'qima obraz |
| Mirzo Ulug'bek  | Feruza        |
| Abdullatif      | Piri Zindoni  |
| Gavharshodbegim | Bobo Kayfiy   |
| Ali Qushchi     | Berdiyor      |
| Shayhulislom    | Otamurod      |
| Ho'ja Ahror     | Ko'r qalandar |
| Qozi Miskin     |               |

**Topshiriq № 5.** Dramadagi obrazlarga tavsif bering. Bunda adabiyot darsligidan foydalaning. Quyidagi jadvalni davom ettiring.

| Obrazlar       | Muallif izohi                                   | Ulug'bek nutqiga xos so'zlar                                                                                                              | Boshqalarning izohi                                                                                                             |
|----------------|-------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mirzo Ulug'bek | Buyuk olim, Mavoraunnahr hukmdori, yoshi 56 da. | Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim. Go'daklikdan yulduzlarga bo'ldim oshufta. Har xalqning o'z dini, e'tiqodi, ibodati xudovandi bor. | Buyuk qalbli inson, ulug' munajjim. baland fahm sohibi toj. (Piri Zindoni) O'z o'g'lidani yolchimagan benasib padar. (Sakkokiy) |
| Piri Zindoni   |                                                 |                                                                                                                                           |                                                                                                                                 |
| Abdullatif     |                                                 |                                                                                                                                           |                                                                                                                                 |

|             |  |  |  |
|-------------|--|--|--|
|             |  |  |  |
| Bobo Kayfiy |  |  |  |

**Topshiriq № 6.** Asarning badiiy tasvir vositalarini aniqlang va misollarni daftaringizga yozing.

Tashbeh: Oy-Feruza... Feruzaoy... Qay biri afzal,  
Ikkovi ham bir-biridan sevinli, go'zal.

Tazod: Siz yorug'ning g'animisiz, zulmat maddohi,  
Odamlarni shod ko'rsangiz, ortar g'amingiz.

Kinoya:

*Bunga chora – ko'pdan beri sinalgan qurol.*

*Olov yoqib gap qozonin qaynatish kerak.*

**Topshiriq № 7.** Dramada qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarining jadvalini tuzing. Jadval asosida ko'rgazmali qurol tayyorlashga harakat qiling.

Tardi aks  
Men sultonlar o'rtasida bo'ldim  
donishmand –

Donishmandlar o'rtasida sulton  
sanaldim.

Takrir  
Shayxulislom Burxoniddin, bu  
ajab emas,

Ajab emas, sizning shunday  
mulohazangiz.

**Topshiriq № 8.** Mustaqil ish tariqasida Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi matni ustida ishlash bo'yicha kartochkalar tayyorlash topshirig'i beriladi.

**Topshiriq № 9.** O'quvchilarni asar matni bilan puxta tanishishga undaydigan savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

## LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

|                 |                                                                                         |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1- Mavzu</b> | <b>Lirik asarlar tahlili (Mumtoz va hozirgi zamon she'rlarining she'rlari misolida)</b> |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|

### 2.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqti: 80 daqiqa                                                                                                                                                                                | Talabalar soni: 25-30 nafar.                                                                                                                                                                             |
| O'quv mashg'ulotining shakli                                                                                                                                                                    | Amaliy                                                                                                                                                                                                   |
| Mashg'ulotning rejası                                                                                                                                                                           | Lirik asarlarnı janr xususiyatlarini farqlashga o'rgatish.<br>Lirik asar matnini tahlil qilish.<br>Lirik asar matnini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar.<br>Lug'at bilan ishlashning afzalliklari. |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> talabalarni ifodali o'qishga o'rgatish, aruz va bannoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini his qilish malakasini oshirish. |                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Pedagogik vazivalar</b>                                                                                                                                                                      | <b>O'quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                    |
| – Lirik asarlarnı janr xususiyatlarini farqlashga o'rgatish;<br>– Lirik asar matnini tahlil qilishga o'rgatish;<br>– Lirik asar matnini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar.                | – Lirik janrdagi asarlarnı farqlashga o'rgatishning shakl va usullarini o'rganadilar;<br>– Matnı tahlil qilish yo'llarini bilib oladilar;<br>– Tahlil qilishga oid malaka hosil qiladilar.               |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                        | Suhbat, debat                                                                                                                                                                                            |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                      | Maktab, litsey, kollej dasturi va darsligi                                                                                                                                                               |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                          | Individual ishlash, guruh bilan ishlash                                                                                                                                                                  |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                     | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                     |

### 2.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Bosqichlar vaqti                                            | Faoliyat mazmuni                                                         |                                               |
|-------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|
|                                                             | O'qituvchi                                                               | Talaba                                        |
| <b>1-bosqich.<br/>Kirish (5 daqiqa)</b>                     | 1.1. Reja ekranga chiqariladi (1-ilova).                                 |                                               |
| <b>2-bosqich.<br/>Bilimlarni faollashtirish (15 daqiqa)</b> | 2.1. Har bir talaba topshiriqni bajarib bo'lgach, o'z fikrini bildiradi. | Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar. |
| <b>4-bosqich.</b>                                           | 4.1. Mavzuga xulosa                                                      | Eshitadilar, o'z                              |

|                             |                                                                                                                            |                                                                     |
|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| <b>Yakuniy (10 daqiqa).</b> | yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Talabalarga uslubiy tavsiyalar beradi. | munosabatlarini bildirishadi.<br><br>Topshiriqlarni yozib oladilar. |
|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|

## 1-ilova

### Raja:

1. Lirik asarlarni janr xususiyatlarini farqlashga o'rgatish.
2. Lirik asar matnini tahlil qilish.
3. Lirik asar matnini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar.
4. Lug'at bilan ishlashning afzalliklari.

Lirik asarlarni o'qib o'rganishda uning janriy xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Chunki ayrim mumtoz she'rlarning shakliyi tuzilishi bir-biriga o'xshaydi. Bo'lajak pedagoglar ana shu o'xshashliklarni farqlashga o'rganishlari kerak. Bu talabalar amalda qo'llash orqali egallaydi. She'rlarning janr xususiyatlarini farqlash talab etiladi.

1-topshiriq. 1. Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.

Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2. Yo rab ul shahd-u shakar yo labmudur,  
Yo magar shahd-u shakar yolabmudur.

Jonima payvasta novak otqali  
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur.

Talabalar matnini ifodali o'qiydilar va har ikki she'ri bir-biridan farqlaydilar.

1-topshiriq: Alisher Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalini ovoz chiqarib o'qing.

Qaro ko'zum, kelu, mardumlig' emdi fan qilg'il.  
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la.  
Itimgg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa, tufrog'im, ey charx,  
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilgil.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone,  
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub, o'lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumani shavqi jon aro tuzsang,  
Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il

**2-topshiriq:** Tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzing.

|            |                                                   |
|------------|---------------------------------------------------|
| mardumlig' | – odamgarchilik; ko'z qorachig'idek xoslik.       |
| fan        | – rasm, odat, ko'nikma                            |
| mardum     | – ko'z qorachig'i, odamlar.                       |
| ravza      | – bog', chaman                                    |
| takovar    | – ot (hayvon)                                     |
| g'amzada   | – g'am ezgan                                      |
| rishta     | – ip, chilvir                                     |
| rasan      | – ip, bo'yinbog'                                  |
| ko'chkan   | – tog' talaba, Farh.                              |
| xazon      | – kuz                                             |
| sipoh      | – lashkar                                         |
| gulob      | – gul hargi, shakar, suvdan tayyorlangan ichimlik |
| anjuman    | – yig'in, bazm                                    |

**3-topshiriq:** G'azalning nasriy bayonini tuzing.

► 1. Ey qaro ko'zligim, kelib odamgarchilikni odat qilgin. Ko'zim qarosidat qorachiq kabi o'mashgin, yuzing guliga ko'nglum bog'ini gulshan yasab ol, jonim gulshanini qaddi niholingga chaman qilg'il

► 2. Yuzing visoliga ko'ngillarni yetsin desang, sochingni boshdan-oyoq xalqa-xalqa qilgayсан.

► 3. Oting oyoqlarig'a bag'rim qonini xino qilib surt. itimgga bo'yinbog' uchun jonim ipini olgin.

► 4. Ey falak tuprog'im firoq tog'ida topilsa, undan yana xamir qorib, yana o'sha tog'da meni tog' qazuvchi (Farhod) qilgin

► 5. Ey bog'bon, agar bog'ni tikan qilib o'rasang ham bu unga ko'z lashkarining kira olishiga mone'lik qila olmaydi.

► 6. Ey do'stim, yuzida terni ko'rib o'lsam, meni gulob bilan yuvib gul bargi kafaniga o'ragin.

► 7. Ey Navoiy, shavq bazmini jon ichida tuzsang, uning boshog'liq o'qini majlisning shamiga aylantirgin.


#### 4-topshiriq: G'azalni sharhlang.

Birinchi, ikkinchi omonim so'zlar ishlatilib tajnis qo'llangan. Qaro ko'zum – tardu aks.

5-bayt: Husni ta'lil.

6-bayt: Tanosub.

5-topshiriq: G'azaldagi obrazlarni aniqlang. Ularni "Tarmoqlar" usulida ifodalashga harakat qilib ko'ring.



**! Esda tuting:** Tahlil qilinayotgan she'riy asar matni har bir partada bo'lishi kerak.

**6-topshiriq:** Taqte'sini aniqlashga harakat qiling.

Mujtassi musammani mahbuni maqtu'  
Mafoilun failotun Mafoilun Fa'lun  
V - V - V V - - V - V - - -  
Qaro ko'zum, / kelu mardum / lig' emdi fan / qilg'il,  
V - V - / V V - - / V - V - - -  
Ko'zum qaro/sida mardum/ kibi vatan / qilg'il.  
V - V - / V V - - / V - V - - -

**7-topshiriq:** "Yashamoqni o'rgatadi kuz" (Nuriddin Rahmon) she'rini o'qing.

Tongda turdim yomg'irlar bilan,  
Yo'llar bo'lgan xuddi oynadek.  
Yig'lar osmon g'ir-g'irlar bilan,  
Qatra yoshlar bargning bo'ynidek.

Chetda turib bargni kuzatdim,  
Kiprigida yoshlar qaltirar.  
Ko'ngul erib, qo'lni uzatdim,  
Yerga tushib, go'yo mo'ltirar.

**8-topshiriq:** Lirik qahramon haqida o'ylab ko'ring. She'r misralaridagi qofiyani aniqlang. She'r inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Yig'lar osmon g'ir-g'irlar bilan, Kiprigida yoshlar qaltirar misralaridagi shoirming ifodalamoqchi bo'lgan fikri nimada deb o'ylaysiz? She'rdagi qaysi so'zlar sizga ma'qul bo'ldi?

**9-topshiriq:** Quyidagi namunani o'qing. Ularning janrini aniqlang. Bunda siz nimalarga tayanganingizni izohlab bering.

Hazmim ichra g'arib ma'nilar  
G'urabo xaylidin nishona durur.

Anda har bayt necha ma'ni ila  
Bayt emaskim, g'aribxonadur.

|                |                                                                                                            |
|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>2-Mavzu</b> | <b>Umumiy o'rta ta'lim maktablari, AL va KHKlari<br/>Adabiyot faniga oid dasturlari mazmuni va tarkibi</b> |
|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### 1.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vahti: 80 daqiqa                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Talabalar soni: 10-15 nafar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| O'quv mashg'ulotining shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Laboratoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| Mashg'ulotning rejasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning adabiyot dasturini o'zaro qiyoslash va ularning farqli tomonlarini belgilash.</li> <li>2. Dastur va darsliklardagi asosiy tafovutlarni aniqlash.</li> <li>3. Dasturda sinflararo uzviylik va uzluksizlikka qanday e'tibor qaratilganligini misollar bilan izohlash.</li> <li>4. Dastur asosida bir choraklik taqvimiy reja tuzish.</li> </ol> |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash, dastur va darslik bilan yaqindan tanishish                                                                                                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Pedagogik vazifalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                               | <b>O'quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>– Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan mavzular to'g'risida ma'lumot berish</li> <li>– AL adabiyot faniga oid dastur bilan tanishtirish;</li> <li>– KHK adabiyot fani dasturi bilan tanishtirish;</li> <li>– Dasturning tarkibi va tuzilishini tushintirish;</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>– O'quv dasturining mazmuni, mohiyati haqidagi bilimga ega bo'ladilar, ulardan foydalanishga oid tasavvur hosil qiladilar;</li> <li>– Dasturning muhim davlat hujjati ekanligini anglab yetadilar;</li> <li>– Dastur asosida reja tuzishga o'rganadilar;</li> </ul>                                                                                                                                                        |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | Suhbat, amaliy                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Maktab, litsey, kollej dasturi va darsligi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Yakka tartibda ishlash, jamoa bilan ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |

### 1.2 Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Bosqichlar vaqti          | Faoliyat mazmuni                                                                                        |                                               |
|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|
|                           | O'qituvchi                                                                                              | Talaba                                        |
| <b>Kirish (15 daqiqa)</b> | 1.1.Mashg'ulotning maqsadini e'lon qiladi.<br>1.2.Reja e'lon qilinadi va ekranga chiqariladi (1-ilova). | Eshitadilar va yozib oladilar                 |
| <b>Asosiy bosqich</b>     | 2.1.Talaba mustaqil ishlashga kirishadi.                                                                | Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar. |

|                                    |                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                           |
|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>(55 daqiqa)</b>                 | 2.2. Har bir talaba topshiriqni bajarib bo'lgach, o'z fikrini bildiradi.<br>2.3. Uzviylik va uzluksizlikni misollar bilan asoslaydi.<br>2.4. Dasturga asoslanib ish reja tuzishga o'rganadi. | Mustaqil fikr yuritishga harakat qiladilar.<br>Darslik va dastur bilan ishlashga o'rganadilar.<br>Malaka hosil qiladilar. |
| <b>Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | 3.1. Mavziga xulosa yasaydi.<br>3.2. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>3.3. Kelgusi dars uchun talabalarga ushbu tavsiyalar beradi.                      | Eshitadilar.<br><br>Topshiriqlarni yozib oladilar.                                                                        |

## 1-ilova

### Reja:

1. Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning adabiyot dasturini qiyoslash va ularning farqli tomonlarini belgilash.
2. Dastur va darsliklardagi tafovutni aniqlash.
3. Dasturda sinflararo uzviylik va uzluksizlikka qanday e'tibor qaratilganligini misollar bilan izohlash.
4. Dastur asosida bir choraklik taqvimiy reja tuzish.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. – Toshkent: Sharq, 1999.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlarining pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – Toshkent., 2010.
3. To'xliyev B. va boshqalar. "Darslik ustida ishlash". "Fan" nashriyoti. – Toshkent., 2007.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent., 2010.
5. To'xliyev B. Abdurahmonova B. Akademik litsey uchun "Adabiyot". 1-kitob. – Toshkent: Cho'lpon, 2010.

### 1-topshiriq

1. Nutq uslubi haqida fikr yuriting va darsliklar qanday uslubda yozilishi haqida ma'lumot bering.

2. Badiiy asar bilan ilmiy asarning yozilishi uslubidagi farqlarni izohlang.

3. Darslikka qo'yiladigan talablar nimalardan iboratligini tushuntiring?

## **2-topshiriq**

Dasturdan olingan namunalar bilan tanishing. Ulardagi o'ziga xosliklarni izohlang.

## **O'YLARIMNING CHEKSIZ OSMONI**

**Asqad Muxtor. «Yulduzim», «Tug'ilish», «Yo'l», «O'zirniki emas bu umr...», "Bir tup o'rik" she'rlari (2 soat).**

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Asqad Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. «Yulduzim», «Tug'ilish», «Yo'l», «O'zirniki emas bu umr...» she'rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etib yashash va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. Asqad Muxtor she'rlaridagi fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'ziga xoslik. Bu she'rlarning badiiy xususiyatlari.

**O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi (2 soat).**

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumot. "Qiyomat qarz" hikoyasida aks ettirilgan inson kechinmalari, iztiroblari tasviri, insoniy qadriyatlar talqini. Asarda millatga xos samimiylik, soddalik, bag'ri kenglik va irodalilikning ifodalanishi. Hikoya qahramonidagi qarzдорlik tuyg'usi, kechinmalari va iztiroblarining haqqoniy tasvirlanganligi. Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarzi. Hikoya orqali millatga xos halollik, o' zganing haqidagi qo'rqish kabi insoniy sifatlarining ulug'lanishi.

Hikoya haqida.

**Saida Zunnunova. «Mening Vatanim!», «Yer uzra qo'ndi oqshom», «Qizimga», «Buvilar duoga qo'llarin ochib...» she'rlari (2 soat).**

Shoira hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Saida Zunnunova she'rlaridagi tuyg'ular teranligi va samimiylik. «Mening Vatanim!» she'rida yurtga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. «Yer uzra qo'ndi oqshom», «Qizimga» she'rlarida ona mehrining badiiy yo'sinda ifodalanganligi.

S.Zunnunova she'rlarining badiiy xususiyatlari.

**Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi (4 soat).**

Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Oq kema» qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanganligi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida iym namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga ta'siri. Hayotiy voqealik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan o'jiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi. Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati.

**Talabalar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

1. **Asqad Muxtor she'rlari.**

2. **O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi.**

3. **Saida Zunnunova she'rlari.**

4. **Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi.**

## **O'TMISHDAN SADOLAR**

**«Ravshan» dostoni (4 soat).**

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi. Bu xil dostonlarda asosiy mavzu ishqiy mojarolar ekanligi. «Go'ro'g'li» turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda «Ravshan» dostonining tutgan o'rni. Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunus pari, Avaxxon, Ravshan, Zulxumor, aka-ukalar obrazlarining tahlili.

**Alisher Navoiy. «Mehr va Suhayl» (4 soat).**

«Hayrat ul-abror» shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida.

«Sab'ai sayyon» dostonida beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik, tantilik kabi insoniy tuyg'ular ifodasi. Obrazlar tahlili.

**Turdi. She'rlar (2 soat).**

Shoir haqida ma'lumot. «Tor ko'ngullik beklar», «Turdiman» g'azallari tahlili. «Muxammas».

«Yod mandin kim berur yaxshi zamonlar ko'rdiman» muxammasi hasbi hol she'ri namunasi sifatida.

**Uvaysiy.** «Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyma», "Sog'indim" g'azallari, «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari (2 soat).

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. «Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyma» g'azalida ijtimoiy hayot hodisalaridan norozilik, ularga nisbatan ko'ngildagi itztirob va kechinmalarning ta'sirli aks ettirilishi. "Sog'indim" g'azalida farzandi yo'lga ko'z tikkan ona tuyg'ularining aks etishi.

Shoiraning «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari hamda ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari.

**Nazariy ma'lumot:** radif, chiston haqida tushuncha.

**Zavqiy.** "Ajab ermas" g'azali, "Ahli rasta" hajviyasi (1 soat).

Shoir haqida ma'lumot.

"Ajab ermas" g'azalida kelajakka ishonch, yaxshi kunlarga umid tuyg'usining aks etishi. "Ahli rasta" hajviyasida davr odamlaridagi illatli sifatning aks etishi. Asarlarning jozibasi va ta'sirchanligi.

**Maxtumquli. She'rlar** (1 soat).

Maxtumquli hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Maxtumqulining faqat turkmanlar uchun emas, balki barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va mo'tabar ekanligi. Shoir she'rlarida ma'naviy-axloqiy mavzularning ustuvorligi.

«Adolat yaxshi» va shu turkumdagi she'rlarning tahlili. She'rlarda umuminsoniy g'oyaning ilgari surilgani. Maxtumquli she'rlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning ma'rifiy - tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

"Namasan?" she'rida so'fiyona qarashlarning ifodalanishi.

**Talabalar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

1. «Ravshan» dostoni.
2. Alisher Navoiyning «Mehr va Suhayil» asari.
3. Turdi she'rlari.
4. Uvaysiyning g'azal va chistonlari.
5. Zavqiy g'azallari.
6. Maxtumquli she'rlari.

## **YANGI DAVR NAFASI**

**Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romani (4 soat).**

Adib haqida ma'lumot. Romanning «Qo'rqinch bir jasorat» bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik o'rtasidagi to'qnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda ko'rsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi xislatlarga qarshi qo'yilishi.

Yozuvchining qahramonlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Ra'no, Qobilboy, Safar bo'zchi singari obrazlarning o'ziga xos jihatlarini tasviri. Asarning to'liq o'qilishiga erishish.

**Cho'lpon. «Binafsha», «Go'zal», «Ko'ngil», «Xalq», "Buzilgan o'lkaga" she'rlari (2 soat).**

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Go'zal» she'rida go'zallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati po'rtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining ta'sirchan ko'rsatilishi. «Binafsha» she'rida binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi. Mazkur she'rlarda ifodalash mushkul bo'lgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir she'rlarida link qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qo'llanishi. Cho'lponning so'z va poetik obrazni yaratish mahorati.

«Xalq» va «Ko'ngil» she'rlarida Cho'lpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon bo'lishi.

**Abdulla Qahhor. «O'g'ri», «Dahshat» hikoyalari (3 soat).**

Adib haqida ma'lumot. «O'g'ri» hikoyasida jabrdiyya chol – Qobil bobo va o'zgalar baxtsizligini tirikchiligi manbayiga aylantirgan amaldorlar obrazi. Adibning tasvirlash mahorati, so'z qo'llash san'ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlarini ocha bilish iste'dodi.

«Dahshat» hikoyasida insonni yengish mumkin emasligining kurashchan ayol – Unsin obrazi misolida g'oyat ta'sirchan ko'rsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va ta'sirchanligi.

**Mirtemir. «Men tug'ilgan tuproq», «Onaginam», «Toshbu», «Betobligimda», "Shudring", "Qishlog'im" she'rlari (2 soat).**

Mirtemirning qalamkash do'stlaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar.

«Onaginam» she'rida uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug'yonlarining aks ettirishi. Tug'yonlar ko'lami va shoirning tasvirlash mahorati. «Toshbu» she'rida o'zbek ayollariga xos yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarining yorqin va ta'sirchan aks ettirilishi. «Men tug'ilgan tuproq» she'rida ona yurt obrazining

yaratilishi. She'ning samimiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san'ati. Uning she'riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo'ylik.

Nazariy ma'lumot. Tabiat lirikasi haqida.

**Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari (2 soat).**

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. "Yulduzlar afsonasi" asarining o'zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va xayolot olami bilan bog'liqligi. Hulkar va yetti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning, kurashlarning va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri.

Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta'sirchan ifodalanganligi.

Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot.

**E. S. Tompson. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi (3 soat).**

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Uning qalamiga mansub «Yovvoyi yo'rg'a» asarining ko'plab tillarga tarjima etilgan va katta shuhrat qozonganligi.

Asarda erkinlik, hurlik tuyg'usining ulug'lanishi. Ozodlikning o'limdan kuchli ekanligi tasviri.

**Talabalar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

**1. Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romani.**

**2. Cho'lpon she'rlari.**

**3. Abdulla Qahhor. «O'g'ri» hikoyasi.**

**4. Mirtemir she'rlari.**

**5. Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari.**

**6. E. S. Tompson. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi.**

Asarlarni o'rganish uchun - 50 soat.

Yozma ishlar uchun — 14 soat.

Takrorlash uchun — 4 soat.

### **3-topshiriq. Talabalar bilan savol-javob o'tkaziladi.**

1. Dasturning tarkibiy qismlariga diqqat qildingizmi? Ular haqida nima deya olasiz?

2. 7-sinf adabiyot dasturi bilan darsligi o'rtasida uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga e'tibor qaratilganmi? Bu haqda qanday fikr bildarasiz?

3. Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasi 7-sinf o'quvchlarining yosh xususiyatiga mos keladimi? Xullas, sizningcha dastur va darslik yaratishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinganmi?


4. KXX dasturi bilan darsligi orasidagi mutanosiblik to'g'risida nima deya olasiz? KXX uchun adabiyot darsligi sizni qoniqtiradimi?

5. AL larning adabiyot darsliklari haqida fikringiz?

**4-topshiriq.** 7-sinf adabiyot dasturi bilan darsligini solishtiring. Ular o'rtasidagi tafovutlarni aniqlang va daftaringizga yozing.

**5-topshiriq.** Ilovada ko'rsatilgan reja va uning turlariga diqqat qiling va ko'rsatilgan ilovaga tayangan holda choraklik ish reja tuzing.

## 2-ilova





|                  |                                                                                          |
|------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>3 – Mavzu</b> | <b>G'azal va ruboiy tahlili. Tahlil qilishda sharhlash, nasriy bayonidan foydalanish</b> |
|------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|

### 3.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Vaqt</b> – 2 soat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | <b>Talabalar soni</b> : 10-15 nafar.                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Laboratoriya                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| <b>Mashg'ulotning rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Matnni ifodali o'qish.</li> <li>2. Tushunarsiz so'zlar lug'atni tuzish.</li> <li>3. Bayt mazmunini sharhlash.</li> <li>4. Raddiy san'atlarini aniqlash.</li> <li>5. Janr xususiyatini topish.</li> <li>6. Vaznini aniqlash.</li> </ol> |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi</b> : Tahlil qilishda sharhlash, nasriy bayondan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Pedagogik vazivalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | <b>O'quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                                                                                            |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>– Matnni ifodali o'qishga o'rgatish.</li> <li>– Tushunarsiz so'zlar lug'atni tuzishga o'rgatish.</li> <li>– Bayt mazmunini sharhlashga o'rgatish.</li> <li>– Raddiy san'atlarini aniqlashni o'rgatish.</li> <li>– Janr xususiyatini topishga o'rgatish.</li> <li>– Vaznini aniqlashga o'rgatish.</li> </ul> | G'azal va ruboiylarning janr xususiyatlarini o'quvchilarga o'rgatishning shakl va usullarini o'zlashtiradilar.                                                                                                                                                                   |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Subbat, munozara                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Maktab, litsey, kollej dasturi va darsligi                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Individual ishlash                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                                                                                             |

### Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| <b>Bosqich vaqti</b>                                     | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                  |                                                                                                                                  |
|----------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                          | <b>O'qituvchi</b>                                                        | <b>Talaba</b>                                                                                                                    |
| <b>1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)</b>                      | 1.1. Reja ekranga chiqariladi (1-iloval).                                |                                                                                                                                  |
| <b>2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (15 daqiqa).</b> | 1.2. Har bir talaba topshiriqni bajarib bo'lgach, o'z fikrini bildiradi. | <p>Topshiriqlar bo'yicha ishlashga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>G'azallarni sharhlashni, notanish</p> |

|                                       |                                                                                                                                                |                                                                                             |
|---------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                       |                                                                                                                                                | so'zlar lug'atini tuzishni, lirik asarlarning janr xususiyatlarini aniqlashni o'rganadilar. |
| <b>4-asosiy bosqich</b>               | 1. G'azal va ruboiy namunalarining berilishini kuzatish.<br>2. Ularning ilmiy-metodik asoslari bilan tanishish.                                |                                                                                             |
| <b>4-bosqich. Yakuniy (10 daqiq).</b> | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Talabalarga uslubiy tavsiyalar beradi. | Eshitadilar.<br><br>Topshiriqlarni yozib oladilar.                                          |

## 1-ilova

### Reja:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Tushunarsiz so'zlar lug'atni tuzing.
3. Bayt mazmunini sharhlang.
4. Badiiy san'atlarini aniqlang.
5. Janr xususiyatini toping.
6. Vaznini aniqlang.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf darsligi. Yangiyo'l poligraf servis. 2010.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlarining pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. A. Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T, 2010.
3. Hojiahmedov Anvar. She'r san'atlarini bilasizmi? "Sharq" nashriyoti. – T, 1999.
4. Hojiahmedov Anvar. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. "Sharq" nashriyoti. – T, 1998.
5. Hojiahmedov Anvar. Mumtoz badiiyat malohati. "Sharq" nashriyoti. – T, 1999.
6. Yo'ldoshev Qozoqboy. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T, 1996.

Lirik asarlarni o'qib-o'rganishda uning janriy xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Chunki ayrim mumtoz she'rlarning shakili tuzilishi bir-biriga o'xshaydi. Bo'lajak pedagoglar ana shu o'xshashliklarni farqlashga o'rganishlari kerak. Bunday malakaga talabalar amalda qo'llash orqali erishadilar. Talabalarga quyidagi topshiriqlar berish orqali she'rlarning janr xususiyatlarini farqlash talab etiladi:

**1-topshiriq.** Matni ifodali o'qing. Shakliy o'xshash bo'lgan so'zlarning tagiga chizing hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik qaysi jihatidan ekanligini izohlang.

1. Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2. Yo rab ul shahdu shakar yo labmudur,  
Yo magar shahdu shakar yolabmudur.  
Jonima payvasta novak otqali  
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur.

**2-topshiriq.** Shakliy o'xshash so'zlar she'riyatda qanday hadiiy san'atni hosil qilishi haqidagi ma'lumotni Anvar Hojiahmedovning "She'r san'atlarini bilasizmi?" kitobidan topib o'qing yoki yodga olishga harakat qiling. Talabalar topshiriqni bajarishgach, har ikki she'mi bir-biridan farqlaydilar.

Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdin aylansun,  
Yangi oy yuz tavozu ko'rguzub, qoshingdin aylansun.

Agarchi la'l-u yoqut el zamirig'a mufarrihdur,  
Hayotafzo iki la'li guharposhingdin aylansun.

Tan-u jonim hadaf aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk,  
Biri o'qingdin evrulsin, biri toshingdin aylansun.

Raqibing gar erur xasmim, ani yo'ldosh etib kelsang,  
Sanga jon sadqa bo'lsun, jism yo'ldoshingdin aylansun.

Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa jamolingdin  
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdan aylansun.

Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar,  
Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdan aylansun.

Necha qallosh esam ham, ag'niyo ollida bosh egmon,  
G'aniylar himmat ichra ushbu qalloshingdin aylansun.

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,  
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.

Ul oy ko'nglig'a qildi, Ogahiy, ob-u yoshing ta'sir,  
Bori jon-u jahonim oh ila yoshingdan aylansun.

II. G'azal ifodali o'qilgach, uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash topshiriq sifatida beriladi hamda g'azal qofiyasini aniqlash talab etiladi. So'ngra g'azalda ishtirok etayotgan obrazlar aniqlanadi.

## **II Notanish so'zlar lug'atni tuzish topshiriq qilib beriladi**

- Tavoze – kamtarlik
- La'l-u yoqut – dur-gavhar
- Zamir – ko'ngil
- Mufarrih – shodlik
- Hayotafzo – hayotni yashnatuvchi
- Guharposh – gavhar sochuvchi
- Hadaif – nishon
- Chobuk – sho'x o'ynoqi go'zal; mergan
- Xasm – dushman
- Burqa – yuz pardasi, hijob
- Pinhon – yashirin
- Tag'ofil – beparvolik
- Fosh – oshkor
- Qallosh – kambag'al, bechora
- Ag'niyo – boy-badavlat
- Riyovu kizb ahli – riyokor va yolg'onchilar

## **IV Baytlar mazmunini sharhlashga alohida e'tibor qaratiladi**

◆ **1-bayt:** Yuzingni och, quyosh senga fido bo'lib, boshingdan aylansin. Yangi oy yuz tavoze ko'rguzib qoshingdan aylansin. Shoir yor yuzining yorug'ligi (go'zalligi) quyoshdan ham ortiq ekanligini va uning oldida quyosh fido bo'lishini, yangi oy ham yor qoshining nozik va

egikligi jihatidan past darajada bo'lganligi uchun unga ta'zim qiladi.(husni ta'lil)

◆ **2-bayt:** El ko'nglini la'l, yoqut kabi qimmatbaho toshlar xursand qiladigan bo'lsa, hayot bag'ishlovchi gavhar sochuvchi ikki la'lingdan aylansun. (istiora – 2 la'l)

◆ **3-bayt:** Ey sho'x go'zal, jon-u tanimni nishon qilib o'q-u tosh otsang, biri o'qingdan biri toshingdan aylansun. Laf-nashr jon-o'q, tana-tosh

◆ **4-bayt:** Raqib garchi men uchun dushman bo'lsa-da, agar uni yo'ldosh qilsang, senga jonim fido bo'lsin, jismim yo'ldoshingdan (raqibdan) aylansun

◆ **5-bayt:** Yoshing o'n sakkizga yetdi, yuzingdan pardani ol, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdan aylansin.

◆ **6-bayt:** Ko'zing uchidan yashirin boqib, beparvoligingni fosh qilding, bor-u yo'g'im o'sha oshkor va yashirinligingdan aylansin.

◆ **7-bayt:** Qancha bechora bo'lsam ham boylar oldida bosh egmayman, ular himmat bilan mening faqirlikimdan aylansin.

◆ **8-bayt:** Ey saxiy, non va osh bermoqchi bo'lsang, sadoqat ahliga bergin, riyokor va kizb ahli osh-u nonigndan aylanib o'tsin.

◆ **9-bayt:** Ogahiy, oh va yoshing yorning ko'ngliga ta'sir qildi, shekilli, butun jon-u jahonim oh va yoshingdan aylansin.

**V Badiiy san'atlarini aniqlash** baytlar tahlili orqali olib boriladi

■ **1-bayt:** Tashxis- quyosh boshingdan aylansin, oy qoshingdan aylansin; tanosib – yuz, bosh, qosh; quyosh, oy

■ **2-bayt:** Istiora - ikki la'li guharposh

■ **3-bayt:** Tanosub - o'q-u tosh, chobuk, tan, jon; laf va nashr

■ **4-bayt:** Tazod - yo'ldosh – xasm, tashxis

■ **5-bayt:** Takrir - o'n sakkiz

■ **6-bayt:** Tazod - pinhon - fosh

■ **7-bayt:** Tazod va tardi aks - qallosh – ag'niyo

■ **8-bayt:** Istiora va tazod - sidq ahli va kizb ahli

Nido - ey saxiy

■ **9-bayt:** Takrir - oh va yosh; istiora – oy

**Janr xususiyatlari aniqlash**

✦ **Janri:** g'azal

✦ **Mavzusiga ko'ra:** oshiqona

✦ **Qofiyalanishi:** a-a, b-a, v-a, g-a

✦ **Qofiyadosh so'zlar, ya'ni misradagi ohangdosh so'zlar**

yig'indisi: boshingdin, qoshingdin, yo'ldoshingdin, yoshingdan, foshingdan, oshingdin, guharposhingdin, toshingdin, qalloshingdin

- **radif:** “aylansun” soʻzi.

#### **V Janr xususiyatlarini aniqlash**

• **Qofiya turi:** murdaf (radifli) qofiya, yaʼni raviydan oldin kelgan tovush choʻziq unli boʻlganligi uchun.

• **Raviy, yaʼni qofiyani tashkil etuvchi tovush:** “sh”

• **Radif, yaʼni misra soʻngida qofiyadan keyin aynan takrorlanuvchi soʻz:** “aylansun” soʻzi.

#### **VI Vaznini aniqlash**

■ Yuzing ochkim quyosh sadqang boʻlub boshingdin aylansun,  
V --- | V --- | V --- | V ---

■ Yangi oy yuz tavozu koʻrguzub, qoshingdin aylansun.  
V --- | V --- | V --- | V ---

■ Hazaji musammani solim

■ Mafoiylun | Mafoiylun | Mafoiylun | Mafoiylun  
V --- | V --- | V --- | V ---

#### **Bilimlarni faollashtirish uchun savollar**

1. Gʻazal shakliga mansub asarlarning misralari qay tarzda qoʻfiyalanadi?

2. Ruboiy va gʻazal janrini bir-biridan farqlovchi asosiy xususiyatlarini ayting?

3. Sheʼriyatimizda barcha misralari qoʻfiyalangan gʻazallar ham uchraydimi? Ular qanday nomlanadi?

4. Hozirgi zamon sheʼriyatida ham gʻazalchilik va ruboiynavislik anʼanalari davom ettirilganmi? Kimlar bu sohada ijod etishmoqda?

#### **1-matn**

Koʻrgali husningni zoru muhtalo boʻldum sango,  
Ne baloligʻ kun edikim, oshno boʻldum sango.  
Har necha dedimki, kun-kundan uzay sendin koʻngul,  
Vahki, kun-kundin batarroq muhtalo boʻldum sango.

**Alisher Navoiy**

#### **2-matn**

Koʻzum uchadir, magarki yorim keladur,  
Es har dam ozar, magar nigorim keladur.

Yo bodiyat firoq sayrida qilib,  
Yuz marhala qat' shahsuvorim keladur.

**Alisher Navoiy**

**Yuqorida keltirilgan lirik asarni janr xususiyatiga ko'ra farqini aniqlang.**

1. G'azal haqida nimalarni bilasiz?
2. Ruboiyning qofiyalanishidagi o'ziga xoslik to'g'risida fikr bildiring.
3. G'azalchilikda kimlar shuhrat qozongan?

**Darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.**

|                |                                                                                   |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>4-Mavzu</b> | <b>Adabiyot darslarida insho yozish. Inshoni baholash, tahlil qilish yo'llari</b> |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|

#### 4.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Vaqt:</b> 80 daqiqa                                                                                                                                                                    | <b>Talabalar soni:</b> 10-15 nafar.                                                                                                                                                                                 |
| <b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>                                                                                                                                                       | Laboratoriya                                                                                                                                                                                                        |
| <b>Mashg'ulotning rejasi</b>                                                                                                                                                              | 1. Insho o'tkazish maqsadi va unga qo'yiladigan talab.<br>2. Insho turlariga izoh berish, mavzu, reja, epigraf haqida tushuncha berish.<br>3. Insho xatolari ustida ishlash yo'llarini bayon qilish.                |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, yozma nutqni o'stirish.                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                     |
| <b>Pedagogik vazirlar</b>                                                                                                                                                                 | <b>O'quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                               |
| – Insho – yozma nutqning asosiy shakli ekanligi;<br>– Insho uchun mavzu tanlashni o'rgatish va ijodiy fikrlashga odatlantirish;<br>– Insho yozdirish orqali savodxonlikni nazorat qilish. | – og'zaki javob beradilar;<br>– Insho yozish uchun mavzu tanlaydilar, epigraf, dalil keltirishni o'rganadilar, rejani to'g'ri tuzishga harakat qiladilar;<br>– xatolarni bartaraf qilish yo'llarini bilib oladilar. |
| <b>O'qitish usullari</b>                                                                                                                                                                  | Subbat, savol-javob                                                                                                                                                                                                 |
| <b>O'qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                | Proyektor, daftar                                                                                                                                                                                                   |
| <b>O'qitish shakli</b>                                                                                                                                                                    | Individual ishlash                                                                                                                                                                                                  |
| <b>O'qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                               | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                                |

#### Adabiyotlar ro'yxati:


1. M. Rahmonov, S. Mo'minov. O'quvchilar nutqini o'stirishning ba'zi omillari. TAT jurnali. 1997 y. 6-son.

#### Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| <b>Bosqichlar vaqti</b>   | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                               |                                        |
|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
|                           | <b>O'qituvchi</b>                                                                     | <b>Talaba</b>                          |
| <b>Tayyorlov bosqichi</b> | 1.1. Mavzu e'lon qilinadi. Maqsad aytiladi. O'quv topshiriqlari ekranda ko'rsatiladi. | Eshitadilar. Ko'radilar, tushunadilar. |
| <b>Kirish bosqichi</b>    | Mavzular ekranda tavsiya etiladi (1-ilova).                                           | Yozib oladilar.                        |
| <b>Asosiy bosqich</b>     | Insho yozish uchun vaqt                                                               | Insho yozadilar.                       |

|                        |                                                                                       |                              |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|
|                        | berilishini e'lon qiladi.<br>Daftarlarni yig'ib oladi va<br>xatolarni umumlashtiradi. | Eshitadilar, yozib oladilar. |
| <b>Yakuniy bosqich</b> | Xulosa qiladi.                                                                        | Tinglaydilar.                |

## 1-ilova



## Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing

■ Maktabda o'tkaziladigan yozma ishlarning eng muhim va murakkab turi inshodir. Insho o'quvchining mustaqil ishlashni, hayotni kuzatishi natijasida o'zlarida paydo bo'lgan taassurotlarni umumlashtirish malakasini, ijodiy qobiliyatini o'stirishda, umuman, bilimlarni puxta egallashida muhim rol o'ynaydi.

■ Talaba insho yozish uchun yetarli bilimga, o'ziga ma'lum bo'lgan narsalarni aniq tartibga sola bilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun u badiiy asarlarni doimiy suratda o'qib borishi, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqea va obrazlarni chuqur anglab olishi, sinfdan tashqari ishlarni mustaqil suratda bajarib borishi kerak.

■ Har bir o'quv mashg'uloti, jumladan, insho yozish ham jiddiy mehnat talab qiladi. Insho yozish aqliy mehnat hisoblanadi. Aqliy mehnat kishidan juda katta aqliy va hissiy kuch-quvvat hamda yetuk malakali bo'lishni taqazo etadi. Ana shu talablarga rioya qilgan talabalarda mustaqil fikrlash, so'z va material tanlash va to'plash, ularni mantiqiy jihatdan o'zaro bo'g'liq holda ifodalash, orfografiyaga e'tibor berish qobiliyati tez rivoj topadi, mehnat intizomi ham tarbiyalanadi.

■ Umuman, adabiy mehnat to'g'ri tashkil etilgan taqdirdagina, insho tarbiyaning samarali vositasiga aylanadi, talabalarda insho yozishga qiziqish, havas kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, ko'rgan narsalari va o'qigan kitoblari to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

■ Insho yozishga tayyorlanishda birinchi bosqich mavzu tanlash va kerakli materiallarni to'plash, ikkinchi bosqich materiallarni yozma ravishda bayon qilishdan iboratdir. Inshoda asar mavzui va g'oyasini to'g'ri yoritish, obraz va voqealarni to'g'ri baholash, fikrni izchillikda, ravon uslub bilan, orfografik va tinish belgilariga rioya qilgan holda, savodli ifodalash talab etiladi.

■ Insho yozish tartiblari va unga qo'yiladigan talablarni puxta anglab olishlari uchun, talabalar inshoga taalluqli mavzu, reja, tezis, dalil, xulosa kabi terminlarni o'zlashtirib olishlari kerak.

■ Mavzu zaminida inshoning asosiy mazmuni yotadi. Talabalar u haqda aniq tasavvurga ega bo'lsalargina, inshoni talabga javob beradigan darajada yozishlari mumkin. Bunda mavzuning juda aniq bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Puxta o'ylab tanlangan mavzu talabalarning unga mos material tanlashlari va bu materiallarni izchillikda yoritishlari uchun yo'llanma sifatida xizmat qiladi. Insho mavzuini tanlashda uning tarbiyaviy ahamiyatiga, talabalarning yoshi va bilim darajasiga qanchalik mosligiga ham e'tibor beriladi.

|                |                                                                                                                            |
|----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>5-Mavzu</b> | <b>“Mumtoz asarlarni o‘rganishda lug‘at bilan ishlashning o‘ziga xosligi” mavzusida 1 soatlik dars-ishlanma tayyorlash</b> |
|----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### 5.1. Ta‘lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Vaqt: 80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                                                  | <b>Talabalar soni: 10-15 nafar.</b>                                                                                                                                                                                                                |
| <b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash.</b>                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Mashg‘ulotning rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                            | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mumtoz asarlarni o‘rganishda lug‘at bilan ishlashning afzalliklari (1-ilova).</li> <li>2. Mumtoz asar matni lug‘atini tuzishga o‘rgatish (2-ilova).</li> <li>3. Matn bilan ishlash (3-ilova).</li> </ol> |
| <b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Talabalarda mumtoz asar matni ustida ishlash ko‘nikmasini hosil qilish.                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Pedagogik vazifalar</b>                                                                                                                                                                                                                                                              | <b>O‘quv faoliyatining natijalari</b>                                                                                                                                                                                                              |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mumtoz asar matni lug‘atini tuzishga o‘rgatish;</li> <li>- Darslikda berilgan mumtoz asarlar lug‘atini tuzish va notanish so‘zlarni izohlashga o‘rgatish;</li> <li>- Mumtoz matnlarni lug‘at yordamida hozirgi tilingizga o‘girish.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qiyin so‘zlarni topishni o‘rgatish;</li> <li>- mustaqil ishlashga o‘rgatish;</li> <li>- matn mazmunini o‘z fikrlari bilan bayon etishni egallash;</li> <li>- malaka hosil qiladilar.</li> </ul>           |
| <b>O‘qitish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                | Subbat, savol-javob                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>O‘qitish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                              | Darslik, marker, ekspert topshirig‘i.                                                                                                                                                                                                              |
| <b>O‘qitish shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                  | Guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>O‘qitish sharoitlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                             | Projektor va kompyuter bilan ta‘minlangan auditoriya                                                                                                                                                                                               |

### 5.2 Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| <b>Bosqichlar vaqti</b>               | <b>Faollat mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                   |
|---------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                       | <b>O‘qituvchi</b>                                                                                                                                                                                                                                                              | <b>Talaba</b>                                                                                                     |
| <b>Tayyorlov bosqichi (15 daqiqa)</b> | <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. Mavzu e‘lon qilinadi. Ta‘limiy maqsad aytiladi.</li> <li>1.2. O‘quv topshiriqlari yozilgan varaqalarni tarqatadi.</li> <li>1.3. Mavzu bo‘yicha talabalarga ko‘rsatma beradi.</li> <li>1.4. Talabalar guruhga bo‘linadi.</li> </ol> | <p>Eshitadilar.<br/>Ko‘radilar, tushunadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Guruhga bo‘linadilar.</p> |
| <b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>     | 2.1. Savol-javob o‘tkazadi. Baholaydi.                                                                                                                                                                                                                                         | <p>Topshiriq bo‘yicha ishlaydilar.</p> <p>Javob beradi. Tinglaydi.</p>                                            |
| <b>Yakuniy bosqich</b>                | Xulosa qiladi.                                                                                                                                                                                                                                                                 | Tinglaydilar.                                                                                                     |

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xliyev. B Adabiyot o'qitish metodikasi, "Yangi asr avlodi". – T., 2006.
2. Qodirov B. "Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T., 2009.
3. Ne'matov H. va boshqalar 6-sinf Ona tili darsligi. – T., 2008.
4. Nurmatova Gulnoza. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2008 №3
5. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf Adabiyot darsligi. – T., 2010.
6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua "O'zbekiston" nashriyoti. – T., 2010.
7. Gulxaniy. Zarbulmasal. "O'qituvchi". Nashriyoti. – T., 1972.

Dars tashkil etilgach, o'qituvchi talabalar bilan mumtoz adabiyotni o'rgatishdagi murakkabliklar borasida savollar bilan murojaat etadi. Talabalarga proyektor orqali savollarni havola qiladi.


### **Savollar:**

1. Mumtoz adabiyot namunalarini tushunish va tushuntirishdagi murakkabliklar nimada deb o'ylaysiz?
2. Mumtoz matndan ma'no chiqarishda lug'atdan foydalanishning ahamiyati haqida gapiring.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinflar yuqorilagan sari matnni tushunish murakkabligi ortadimi? Qanday bo'ladi?

### **2-ilova**

Matndagi notanish so'zlar lug'atini jadvalda ko'rsating

Bor edi bir beshada bir tund sher,  
Vahshat aro ko'k asadidek daler.  
Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,  
Mo'r bolasin qilur erdi halok.



### 3-ilova

O'quvchilarning har biriga o'quv topshiriqlari alohida-alohida beriladi.

**1-o'quv topshirig'i.** Matnning nasriy bayonini tuzing.

Bir hakiin o'g'illariga mundoq pand berur edikim: "Ey jon farzandlarim, hunar o'rganinglar, negakim, mulk va molga e'timod yo'qdurur".

**2-o'quv topshirig'i.** Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini Navoiy asarlari lug'atidan tohing va izohlang.

Mayini qo'yoki, volau zor ul,

Jon berib vasliga xaridor ul.

**3-o'quv topshirigi.** Tuyuqni o'qing shakldosh so'zlar ma'nosini izohlang. Bunda "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobidan foydalaning.

Xo'b shifobaxsh doridur lazzatli tut,  
 Bu qadim hikmat erur, yodingda tut.  
 Gar diligda bo'lsa zarra ishtiyoq.  
 Tut ekib, tut o'stirish yo'lini tut.

Qoshlaring xush lojuvard-u toq erur,  
 Xush ichinda benazir-u toq erur.  
 Torta olmasmen firoqing, netayin,  
 Qilcha tanga bari ishqing toq erur.

Yusuf Berdaqning “Mumtoz asarlar lug‘ati” kitobidan foydalanib tuyuqlarning hozirgi tilimizdagi nasriy bayonini tuzing.

**4-o‘quv topshirig‘i.** Quyidagi matnni o‘qing va lug‘atini tuzing.

Bor edi Kashmir navohiyda tog‘,  
Bog‘i Eram rashkidan ko‘ksida dog‘.

Anda imoratga yarolig‘ yag‘och,  
Yetti quloch, bo‘yi o‘n ikki quloch.

Bor edi ko‘b ne‘mat-u alvonlari,  
Xurram-u ma‘mur edi hayvonlari.

Ketdi hunar shavqi bila g‘ussasi,  
Tushdi yag‘och ayrisig‘a dumchasi.

Odami jinsida yo‘q qissasi,  
Qoldi aning dumchasining hissasi.

**5-o‘quv topshirig‘i.** O‘qituvchi talabalar bilan savol-javob o‘tkazadi.

1. Yuqorida keltirilgan matn qaysi asardan olingan? Keltirilgan hikoya muallifini ayting?

2. Voqea qayerda sodir bo‘lgan? Muallif joy tasvirini qay tarzda yoritgan?

3. Matn sizga tanishmi? Agar tanish bo‘lsa, hikoyatning mazmunini to‘liq so‘zlab bering.

**6-topshiriq.** 1 soatlik dars ishlanmasi namunasini yozish

**Darsning mavzusi:** «Qutadg‘u bilig»ning badiiy xususiyatlari

**Darsning maqsadi:**

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarning badiiy tasvir vositalari orqali badiiy adabiyotga, xususan, Yusuf Xos Hojibning ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish.

**Ta’limiy maqsad:** O‘quvchilarni asardagi tasvir vositalari, ularning turlari va qo‘llanish xususiyatlari bilan tanishtirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Ularning nutqida badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish; mavzu asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish.

## **Darsning jihozi:**

1. Mashg'ulot uchun umumiy epigraf: «Men yovvoyi so'zlarni tutdim».

Yusuf Xos Hojib

2. Yusuf Xos Hojibning portreti.

3. «Qutadg'u bilig» nashrlaridan namunalar.

4. Darslik.

5. «Qutadg'u bilig» da badiiy-tasvir vositalari jadvali.

6. Asardan olingan parchalardan iborat kartochkalar.

## **Darsning borishi:**

### **1. Kirish suhbat**

Biz o'tgan darslarimizda Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi, u yaratgan muhtasham asar – «Qutadg'u bilig» dostonining tuzilishi, syujeti, obrazlar tizimi, unda ifodalangan asosiy g'oya va mavzular haqida suhbatlashgan edik. Keling, shu asar haqida o'qiganlarimizni yana bir marta xotirlaylik:

Yusuf Xos Hojib o'z asarini nima maqsadda yozgan?

Badiiy asarning yaratilishi faqat shaxsiy istak bilangina bog'liq emas.

U jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi talab va ehtiyojlari zahirida yuzaga keladi. Yusuf Xos Hojibning asari turkiy xalqlarning milliy tiklanish jarayonlari boshlanib kelayotgan davrda yaratilgan. Bu paytda qoraxoniylar davlati mustaqil bir davlat sifatida shakllangan edi. Unda turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Qo'lga kiritilgan yutuq davlatchilikning poydor bo'lishi uchun zarur bo'lgan omillar ramziy obrazlar vositasida ko'rsatilgan. Undagi hukmdor – Kentug'di elig qiyofasida tasvirlangan. U Adolat ramzidir. Hukmdorning eng yaqin yordamchisi, qo'ldoshi vazirdir. Vazir Oyto'ldi qiyofasida ko'rinadi. U Davlat ramzini anglatadi. O'gdulmish Aqlning ramzi. U asarda Oyto'ldining o'g'li qiyofasida ko'rinadi, keyinroq otasining o'miga vazir bo'ladi. O'zg'urmish esa zohid timsolida keladi. Adib shu qahramonlarning badiiy taqdiri, ya'ni talqini vositasida Adolat va Aqlni ulug'laydi. Insonning baxtli va saodatli bo'lishi uchun zarur bo'ladigan xislat va fazilatlarini badiiy tarzda ko'rsatib beradi. Tasvirlarda insonning zavqi keladigan holatlarni topadi. Turkiy tilning nozik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Turkiy tilning ichki imkoniyatlarini namoyish etish ham adib oldidagi asosiy vazifalardan biri edi.

**2. Yangi mavzu bayoni:** Dars suhbat metod asosida boshlanadi. Bunda o'qituvchi quyidagi savollardan foydalanishi mumkin: Asarning asosiy mavzu qamrovi haqida nima deya olasiz? Yusuf Xos Hojib qaysi

badiiy tasvir vositalarini ko'proq qo'llagan? Ular qaysi maqsadda qo'llangan?

Yusuf Xos Hojibning badiiy uslubi uchun epitet, tashbeh – o'xshatish, istiora, ta'did, jonlantirish singari tasvir vositalari xosdir. U anafora, tazod, inversiya, parallelizm, ritorik so'roq, ritorik murojaatlardan ham unumli foydalanadi.

Tashbeh nima, uning qanday qismlari bor? Yusuf Xos Hojib tashbehlarning o'ziga xosligi nimada?

Ko'kish turna ko'kda unun yangqular,

Tizilmish tetirtek uchar, elgurar.

Ko'kish turna ko'kda ovozlar qilar,

Tizilgan tuyadek uchar, elgurar.

Tashbeh tasvir vositalaridan eng keng tarqalganlaridan biri bo'lib, unda «so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa-hodisalar, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat, belgi yoki funksiyadagi umumiylik qiyoslanadi, o'zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa, hodisaning ayrim xususiyatlari chuqurroq ochib beriladi» (Tashbeh haqida yana qo'shimcha ma'lumotlarni o'quvchilarga taqdim qilish uchun qo'shimcha maqola va kitoblarni tavsiya etish mumkin):

O'zingiz yaxshi bilgan badiiy tasvir vositalariga misollar keltiring. Ularning nima uchun qo'llanganini tushuntirib bering:

1. Alliterasiya:

Tarig'chi turur, ko'r, taqi bir qutu,

Keraklig kishilar turur, bu butu.

2. Istiora:

Qaliq qashi tugdi, ko'zi yosh sachar,

Chechak yazdi yuz, ko'r, kular, qatg'urar.

3. Tazod:

Uqushlug', vafalig', kishi tuzuni,

Yulug'lar kishika qamug' o'zini.

Arig'siz, jafalig', qilinchi o'tun

Qali aydi ersa, qiyar so'zini.

4. Ta'did:

Tilingni ko'dazgil, ko'zingni ko'daz,

Bo'g'o'zni ko'dazgil, halal, egil az.

5. Tajnis:

O'sal bo'lma, saqlan qamug' ishda san,

O'sayug' arutti ekaguda san.

Darsimiz uchun tanlangan epigrafni qanday tushunasiz?

Siz bugungi mavzumiz uchun qaysi epigrafini tavsiya etgan bo'lar edingiz?

Istiora haqida nimalarni bilasiz? Yusuf Xos Hojib asarida qanday istioralar uchraydi? Quyidagi misralarni o'qing, undagi istioralarni topib, bajarayotgan vazifasini aytib bering:

Qara bosh yag'isi qizil til turur,  
Necha bosh edi ul, taqi ma eyur.  
Bashingni tilasang, tilingni ko'daz,  
Tiling tegma kunda bashingni yeyur.  
Qora bosh yovi bu qizil til turur,  
Necha bosh edi u yana ham yeyur.  
Boshing sog'lig'i-chun tiyib yur tiling,  
Tiling istagan kun boshingga yetur.

Quyidagi parchalar asarning qaysi qismidan olingan? (o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab o'qituvchi asarning turli boblaridan kichik-kichik parchalarni tavsiya etishi mumkin)

**Darsni mustahkamlash:** «Bahor madhi» qismidan olingan parcha ustida ishlash. Undagi tasvir vositalarini aniqlash.

«Bahor madhi» matnidan yod olgan parchalaringizni esga oling.

Mazkur matnlarda qanday tasvir vositalari ishtirok etyapti?

1. Inversiya (gapdagi so'zlarning odatdagi tartibining buzilishi) ning she'riy matndagi o'rni va ahamiyati haqida gapirib bering. Asardan olingan aniq bir bayt misolida uning bajarayotgan vazifasini izohlang.

2. «Bahor madhi» parchasidan epitet (ifodaga obrazlilik hamda emosionallik beradigan aniqlovchilar), alliterasiya (she'riy nutqda so'zlarning boshidagi tovushlarning takrorlanishi), jonlantirish (jonsiz predmetlarni jonli predmetlar sifatida tasvirlash), tashbeh va ta'didlarga namunalarni toping. Ularning badiiy ta'sirchanlikni yuzaga keltirishdagi vazifalarini tushuntirib bering.

Quyidagi misralardan o'xshatishni toping:

Ko'kish turna ko'kda unin yangqular,

Tizilmish tetirteg uchar, elgurar.

3. Qadimgi turkiy til lug'atidan ostiga chizilgan so'zning ma'nosini toping (bu ham kartochkaga yozilgan holda tavsiya etiladi).

Qurimish yig'achlar to'nandi yashil,

Bezandi yapun al, sarig', ko'k, qizil.

4. Quyidagi parchalardan tegishli tasvir vositalarini toping. Ularning nima maqsadda qo'llanganini izohlang (notanish baytlardan namunalarni tavsiya etiladi):

Tuman tu chechaklar yazildi kula,

Yipar to'ldi kafur ajun yid bila.

5. Tegishli tasvir vositasi mazkur parchadagi badiiyat uchun nega muhim hisoblanadi? Izohlab bering.

6. Endi tasvir vositalarining roli va ahamiyatini umumlashtiring. O'z xulosalaringizni ayting.

O'quvchilar bu topshiriqqa ham og'zaki, ham yozma javob qaytarishlari mumkin. Eng muhimi, ular misollarni tasodifan emas, balki asarning mazmuniga, mohiyatiga aloqalantirib talqin qilishlariga erishish lozim.

O'quvchilarning yozma ishlaridan ayrim ko'chirmalar:

*Yusuf Xos Hojib tasvir vositalarini tasodifan qo'llamaydi. Ularda shoirning g'oyaviy-badiiy maqsadlari mujassamlashadi. Shoir komil inson qiyofasini tasvirlar ekan, bunday insonning oqil, bilimdon, mehnatkash, tirishqoq, andishali, bosiq bo'lishi lozimligini, yomon narsalardan tiyilishi kerakligini uqtiradi. Tasvir vositalari ham shu maqsadda qo'llangan.*

*Yusuf Xos Hojib adolatli davlat va undagi jamiyatning osoyishtaligini davlat boshlig'iga bog'liq, deydi. U o'xshatish asosida davlat boshlig'ini qo'ychiga, xalqni suruvga, xalqni talaydigan johil va ochko'z amaldorlarni bo'riga o'xshatadi.*

*Yusuf Xos Hojib – hadiyy so'zning ustasi. Shuning uchun ham, u ayrim odamlarni, ulardagi xislat yoki nuqsonlarni juda to'g'ri, aniq va ishonarli qilib tasvirlaydi. Uning tasvirini o'qigan kishida undan ta'sirlanish hosil bo'ladi.*

*Yusuf Xos Hojib badiiy tasvir vositalarini san'atkorlik bilan qo'llagan. Ularning ko'pi birinchi marta uchraydi. Masalan, u kaklikning qoshini qop-qara desa, uning tumshug'ini «qizil og'zi qondek» deb tavsiflaydi. Saroydagi yovuz kishilarni esa och bo'ri deydi. Kishining ko'nglini nozik shishaga o'xshatish ham Yusuf Xos Hojibning asarida uchraydi.*

Quyidagi parchalarda adib so'zlar takroridan foydalangan. Uning bajarayotgan vazifasi nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

Esizim yigitlik, esizim yigitlik,

Tuta bilmadim men, seni tark qachittim.

Bahor tasvirini esga oling. Unda qanday qush va hayvonlar haqida gap boradi? Shoir nima uchun ayni shu jonivorlarni tanlab olgan deb o'ylaysiz?

**Uyga vazifa:**

Quyidagi asarda qo'llangan tasvir vositalarini topish, ularning bajarayotgan vazifalarini belgilash uchun o'quvchilarning o'zlari to'ldirishlari mumkin bo'lgan jadval namunasi tavsiya etilmoqda. Sinfning tayyorgarlik darajasiga qarab, ularning mazmunini o'zgartirish

ko'zda tutiladi. Bunga tasvir vositalari haqidagi ma'lumotlarni qisqartirish yoki kengaytirish hisobiga erishish mumkin bo'ladi.

**«Qutadg'u bilig»da badiiy-tasvir vositalari jadvali**

| Badiiy-tasvir vositasi                          | Misollar | Qisqacha izoh |
|-------------------------------------------------|----------|---------------|
| Tashbeh (o'xshatish)                            | -        | -             |
| Istiora                                         | -        | -             |
| Epitet                                          | -        | -             |
| Tazod                                           | -        | -             |
| Ta'did                                          | -        | -             |
| Tajnis                                          | -        | -             |
| Talmeh                                          | -        | -             |
| So'z takrori                                    | -        | -             |
| Alliterasiya (so'z boshidagi tovushlar takrori) | -        | -             |

Darsda qatnashgan talabalar baholanadi va dars yakunlanadi.

|                |                                                                                                                         |
|----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>6-mavzu</b> | <b>Noan'anaviy darslarning turlari, ularni tashkil etishning shakl va usullari (1 soatlik dars-ishlanma tayyorlash)</b> |
|----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|


### 6.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

|                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mashg'ulot vaqti: 80 daqiqa                                                                                                                                                                                                                                                               | Talaba soni: 10-15 nafar                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| Mashg'ulot shakli                                                                                                                                                                                                                                                                         | Laboratoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| Mashg'ulot rejasi                                                                                                                                                                                                                                                                         | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars turlari.</li> <li>2. Bahs-munozara darsining musobaqa darsidan farqi.</li> <li>3. O'yin darslarini tashkillash usullari.</li> <li>4. Noverbal texnologiyasi qo'llanilgan darsni tashkil etish va uni tahlil qilish.</li> </ol> |
| Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha olgan mavjud bilimlarini amaliy sinovdan o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b><br>-noan'anaviy dars va uning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash;<br>-musobaqa yoki bahs-munozara darsi bo'yicha ma'lumot berish;<br>-o'yin darslari haqida tushuncha hosil qilish;<br>-Talabalarning o'zlari tomonidan dars tashkil etishga erishish; | <b>Natijalar:</b><br>Mavzuni ochib berishga harakat qiladilar.<br>Aytib beradilar yoki amaliy ko'rsatadilar.<br>Mavzuni mustahkamlash yo'lini izlab topadilar.                                                                                                                                                                       |
| O'qitish usuli                                                                                                                                                                                                                                                                            | Suhbat, munozara, savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| Ta'lim berish shakli                                                                                                                                                                                                                                                                      | Ommaviy-guruhlarda ishlash, noverbal texnologiyasi                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Ta'lim berish vositasi                                                                                                                                                                                                                                                                    | Maktab adabiyot darsligi, proektor, marker                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| Ta'lim berish sharoiti                                                                                                                                                                                                                                                                    | Texnik ta'minlangan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| Baholash                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Og'zaki nazorat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |

### 6.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Vaqti: 80 daqiqa      | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                       |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
|                       | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                        | Talaba                                                                                |
| Kirish<br>(15 daqiqa) | <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. Mavzuning rejasi va maqsadini e'lon qiladi.</li> <li>1.2. Rejani ekranga chiqaradi.</li> <li>1.3. Mavzu bo'yicha tushunchalarini so'raydi va shu asosida o'quvchi bilimini faollashtiradi.</li> </ol> | Eshitadilar.<br>Yozib oladilar.<br>E'tibor beradi.<br><br>Savollarga javob beradilar. |

|                                |                                                                                                                                                                                          |                                                                                      |
|--------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| Asosiy bosqich<br>(55 daqiqa)  | Mavzu bo'yicha talabalardan (oldindan topshirilgan) dars o'tishlari talab etiladi. Ya'ni talabalar taqdimot o'tkazishadi. Dars tahlil etiladi, talabalar rag'batlantiriladi, baholanadi. | Faollashadi.<br>Hamkorlik qiladi.<br>Nazariyani amaliyot bilan bog'lashni o'rganadi. |
| Yakuniy bosqich<br>(10 daqiqa) | Xulosa qiladi. Topshiriqlar beradi.                                                                                                                                                      | Tinglaydi                                                                            |



### **Diqqat, savol!**

1. An'anaviy darsdan qanday didaktik maqsad ko'zlangan? Zamonaviy dars turlaridan-cni?

2. Musobaqa deganda nimani tushunasiz? "Musobaqa darslari"ni qanday tasavvur qilasiz?

3. Bahs bilan munozaraning farqi bormi?

4. Verbal va noverbal harakat haqida o'ylab ko'ring.

**3-topshiriq.** 7-sinf adabiyot dasturi asosida 1-soatlik dars ishlanmasini tayyorlash. Namuna sifatida o'qituvchi dars ishlanmasini tavsiya etadi.

## MUNDARIJA

|                                    |                                                                                                                       |    |
|------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1-mavzu                            | Badiiy asarni obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish.....                                                                  | 3  |
| 2-mavzu                            | Matn ustida ishlash yo'llari.....                                                                                     | 10 |
| 3-mavzu                            | Epik asarlarni o'rganish usullari.....                                                                                | 15 |
| 4-mavzu                            | Adabiyot darslarida dramatik asarlarni tahlil qilish usullari.....                                                    | 20 |
| <b>LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI</b> |                                                                                                                       |    |
| 1-mavzu                            | Lirik asarlar tahlili ( <i>Mumtoz va hozirgi zamon shoirlarining she'rlari misolida</i> ).....                        | 24 |
| 2-mavzu                            | Umumiy o'rta ta'lim maktablari, AL va KHKlari Adabiyot faniga oid dasturlari mazmuni va tarkibi.....                  | 29 |
| 3-mavzu                            | G'azal va ruboiy tahlili. Tahlil qilishda shartlash, nasriy bayonidan foydalanish.....                                | 38 |
| 4-mavzu                            | Adabiyot darslarida insho yozish. Inshoni baholash, tahlil qilish yo'llari.....                                       | 45 |
| 5-mavzu                            | "Mumtoz asarlarni o'rganishda lug'at bilan ishlashning o'ziga xosligi" mavzusida 1 soatlik dars-ishlanma tayyorlash   | 48 |
| 6-mavzu                            | Noan'anaviy darslarning turlari, ularni tashkil etishning shakl va usullari (1 soatlik dars-ishlanma tayyorlash)..... | 57 |

**Barno Abdurahmonova**

## ***Adabiyot o'qitish metodikasi***

*Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari*

Muharrir  
Texnik muharrir  
Dizayner  
Sahifalovchi

Sh. Qurban  
L. Hajibekov  
B. To'xliyev  
N. Rahmonov

Nashriyot litsenziyasi: AI № 182, 8.12.2010.

Terishga berildi: 12.09.2012 й.

Bosishga ruxsat etildi: 6.12.2012 й.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.

Times garnituras. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 2,5. Shartli b.t.: 3,75.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 56

*Alisher Navoiy nomidagi*  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti

«BAYOZ» MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.  
100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.